جديد

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil
16-fevral
№ 8 (8)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

NAFIS MAJLISLAR

O‘ZBEK MILLIY RUHI ZAVOL BILMAGAY



Mamlakatimizda buyuk ajdodlarimiz Mir Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining tavallud ayyomlari ma’rifatparvar xalqimizning ardoqli bayramlari sifatida keng nishonlanayotgan shukuhli kunlarda azim poytaxtimizdagi “Ma’rifat markazi” – Simpoziumlar saroyida yana bir betakror madaniy voqea – O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq artisti Munojat Yo‘lchiyevaning ijodiy-ma’rifiy kechasi bo‘lib o‘tdi.

Avvalo, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mazkur ijodiy loyihaning tashabbuskori bo‘lgani, xususan, Simpoziumlar saroyini yurtimizning eng atoqli, eng suyukli san’atkorlari har oyda xalqimiz bilan, milliy san’atimizning haqiqiy muxlislari bilan uchrashib, o‘zaro muloqotga kirishadigan ijodiy dargohga aylantirish bo‘yicha muhim tavsiyalar berganini ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

Albatta, nodir va noyob, yuksak badiiy olam sanalmish akademik, ya’ni mumtoz san’atni chin yurakdan anglash, his qilish, e’zozlash odamdan chuqur tayyorgarlik, keng dunyoqarash, falsafiy tafakkur va nozik didni talab etishi barchamizga ma’lum.

O‘zining mazmunan yangi hayotini boshlayotgan ushbu san’at koshonasidagi birinchi go‘zal anjuman, haqli ravishda, xalqimizning ardoqli farzandi, benazir iste’dodi va mahorati bilan millionlab qalblarni hayajonga solgan, el-yurtimizning shonli tarixini, uning buguni va kelajagini, avlodlarga qoldirajak bebaho merosini o‘z san’ati timsolida butun dunyoga namoyon etib kelayotgan Munojat Yo‘lchiyeva ishtirokida o‘tkazilishi lozim edi va shunday bo‘ldi ham.

Shu o‘rinda, Fransiyada faoliyat yuritayotgan “Temuriylar assotsiatsiyasi”ning ko‘p yillik raisi, taniqli san’atshunos olima Frederik Bressandning quyidagi fikrlarini eslab o‘tsak:

“Bir yili Samarqandga, “Sharq taronalari” xalqaro festivaliga taklif etilgan edim. Oqshom chog‘i anjumanning tantanali ochilish marosimi boshlandi. Mehmonlar safidan joy olib, sahnaga yuzlandim.

Bir mahal Registon maydonining naq to‘rida, Tillakori madrasasi sahnida ulug‘vor qiyofadagi bir temuriy malika namoyon bo‘ldi. U shunday muhtasham viqor va salobat bilan yurib kelar ediki, men beixtiyor, tarix kitoblarida tasvirlangan Sohibqiron Amir Temurning suyukli malikasi Bibixonim shu bo‘lsa kerak, degan xayolga bordim. Yaqinroq kelganidan so‘ng, bu — ulug‘ san’atkor Munojat Yo‘lchiyeva ekanini bildim.

Benazir hofizaning nafaqat sehrli ovozi, balki obraz yaratish mahorati, artistizmi, uning sirli, chaqnoq va ma’nodor ko‘zlari, aslzodalar kabi ohista qadam bosishini ko‘rib, joyimda qotib qoldim. Nainki men, balki butun maydon ahli shunday hissiyot og‘ushida edi.

Munojatning go‘zal siymosidan nazokat va ulug‘vorlik ufurib turardi. Temur va Navoiy davrlarini, Hirotdagi Shohruh Mirzo saltanatida, Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek saroylarida hukm surgan muhit va ruhni qayta jonlantirgan edi bu malika”.

Shu kuni Simpoziumlar saroyiga yig‘ilgan milliy san’atimizning chinakam ixlosmandlari ham temuriylar zamoniga, navoiylar davriga qaytganday, ulug‘ ajdodlarimizning yuksak insoniy fazilatlarini yod etganday bo‘ldilar.

“Munojot”, “Taronai bayot”, “Ushshoq”, “Tong otguncha”, “Samarqand ushshog‘i”, “Tanovar”... Xalqimizning ming-ming yillik orzu-armonlarini, quvonch va tashvishlarini o‘zida namoyon etadigan bunday o‘lmas qo‘shiqlar ma’rifiy kechaning chinakam qahramoniga aylangan Munojat Yo‘lchiyeva ijrosida tinglovchilarni yana bir bor hayrat va hayajonga soldi.

Anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, yozuvchi Xayriddin Sultonov, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi rahbari Olimjon Davlatov, O‘zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov, O‘zbek milliy Maqom san’ati markazi direktori Soyibjon Begmatovning hofiza haqida bildirgan fikrlari katta qiziqish bilan tinglandi.

“Munojat Yo‘lchiyeva to‘g‘risida gapirish oson. Bu inson o‘ta kamtarin, mehnatkash va kamsuqum inson, – dedi jumladan o‘z so‘zida Xayriddin Sultonov. – **Lekin ayni paytda u kishi haqida so‘z yuritish qiyin.**

Men bu holatni quyidagicha izohlagan bo‘lardim: dengiz yoki ummonni qanday ta’riflash, ifodalash mumkin? Ularning ming bir sifati, belgi-alomatidan qay birini aytish mumkin?

Mashhur yozuvchi Anton Pavlovich Chexov: “Men dengizning eng zo‘r, eng mukammal tasvirini bir maktab o‘quvchisining inshosida o‘qidim. U “Dengiz juda katta” deb yozgan edi”, deydi.

Munojat Yo‘lchiyevaga ham bir so‘z bilan, muxtasar tavsif beradigan bo‘lsak, avvalo, shuni aytishimiz kerakki, u – juda katta talant sohibasi. Munojat Yo‘lchiyeva jahon san’atining eng yuksak mezonlari bilan o‘lchanganda ham, ana shu talablarga to‘la javob bera oladigan san’atkor desak, albatta, yanglishmagan bo‘lamiz.

(Davomi 2-sahifada).

BIR G‘AZAL SHARHI

G‘URBATDA BITILGAN TAQDIR G‘AZALI

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyotidagi muallif shaxsiyati bilan bog‘liq o‘rinlar har doim tadqiqotchilarni o‘ziga jalb etib keladi. U qat’iyatli, jasur va haqiqatpanoh inson bo‘lgan. Xuddi shu jihatlar bu nodir shaxsning nafaqat “Vaqoye’ ”(“Boburnoma”)sida, balki bir qancha lirik she’rlarida ham o‘z aksini topgan. Shunday asarlaridan biri uning “qilibtur” radifli g‘azalidir.

Bu g‘azal 1528-yilda yozilgan bo‘lib (bu haqda quyiroqda to‘xtalamiz), shunday boshlanadi:

G‘urbatta ul oy hajri meni pir qilibtur,
Hijron bila g‘urbat manga ta’sir qilibtur.

Ya’ni musofirchilikning g‘aribligida o‘shal qamarsiymo(oy)ning hajri shoirni qaritdi; u o‘zini juda sabrli va irodali hisoblardi, lekin hijron va g‘urbatda o‘tgan yillar unga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi.

Atigi besh baytdan iborat sharhi hol usulidagi ushbu g‘azalning davomida esa shoir taqdirga yukinadi:

Maqdur borincha qiluram sa’yi visoling,
To Tengrini, bilmonki, ne taqdir qilibtur.

Ya’ni kuchim boricha sening visolingga erishish uchun sa’y-harakatimni qilaberaman; ammo bilmaymanki, Tangrim menga neni taqdir qilgan ekan.

Birinchi va ikkinchi baytlarda Bobur shoh o‘z shaxsiy kechinmalaridan so‘zlaydi, uchinchi baytda esa aniq hayotiy voqelik bayoniga o‘tadi:

Taqdirdur ul yon-u bu yon solg‘uchi, yo‘qsa,
Kimga havasi Sanbal, tatyir qilibtur.

Bu baytga biroz to‘xtalish zarur. Aynan tarix aks bu bayt taqdirining o‘zi qiziq.

Bobur she’rlarining ayrim zamonaviy nashrlarida ostiga chizilgan o‘rin “havas Sanbal-u, tatyir” (1982), “havasi Sanbal-u Tatyir” (1994, 2007, 2008-yillar) deb berilgan hamda “Sanbal” va “Tatyir” “Hindistondagi joylar nomi” deya izohlangan. Ba’zilarida hatto “sunbuli tatyir” (1976-yil) yoki “sunbul-u taqdir” (1996-yil) tarzida g‘alati berilgan.

(Davomi 4-sahifada).

ZAMON JADIDLARI

“NONDAN SO‘NG ENG MUHIMI MAKTABDIR”

Bugun ibrat sifatida ko‘rsatilayotgan Yashnobod tumanidagi 255-maktab o‘quvchilari sharoit taqozosi bilan bir vaqtlar yotoqxonada dars o‘tishga ham majbur bo‘lgan. Ular bugun keng va yorug‘ sinfxonalarda, shinam, zamonaviy va havas qilsa arzigulik binoda bilim olishmoqda. Bu yerdagi qizg‘inlik, yuraklaridagi jo‘shqinlikdan ko‘z quvnaydi.

– Bu maktabni maktab qilish oson kechdimi, – kulib gap boshladi maktab direktori Diloro Jumayeva. – Bir paytlar 1250 o‘ringa mo‘ljallangan uch qavatli binoda... 620 nafar o‘quvchi tahsil olardi. Odamlar maktab tanlar ekanmi, binomiz ta’mirtalab bo‘lib qoldi-yu, o‘quvchilarimiz birin-ketin boshqa maktablarga “qochib” keta boshladi. Faqat birinchi qavatdagi sinfxonalardagina dars o‘tilardi. Tepadagi ikki qavatni yopib tashladik. Bir-ikkita xonani vaqtincha foydalanish uchun mahallaga berdik. Kelishga oyog‘im tortmaydi. Maktab huvillaydi... Ta’lim sifati ham ta’mirga yarasha... To‘g‘risi, o‘zim ham ketvorsammi, degan xayollarga borganman. Lekin, qanday qilib? Axir, rahbar bo‘lsam, maktabning taqdiri menga bog‘liq bo‘lsa...

(Davomi 2-sahifada).

FIKR

KURASH MAYDONI



SULTONMUROD OLIM,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

Tarix dalolati shuki, mafkuraviy kurash bir kun ham to‘xtamas ekan. Gazetamiz peshbandida yozilgan “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori ziyoli qatlam vakillarining dil so‘ziga aylanajak. Umid qilamizki, muassislar va jamoatchilik vakillarining tashabbusi qo‘llab-quvvatlanib tashkil etilgan “Jadid” gazetasi shu kurashning boshida turib, peshqadam ziyolilarimizning asl minbariga aylanadi.

Birinchidan, gazeta mamlakat mustaqilligi uchun moljonini tikib kurashga bel bog‘lagan jadidlarimizdan o‘rnak olish, ular merosini o‘rganib, mohiyatini xalqqa yetkazishga harakat qiladi.

Ikkinchidan, ilg‘or ziyolilarimizni bugunning jadidlari bo‘lishga undaydi. Bugunning jadidlari esa, xalqning ko‘zini ochishi, uni uyg‘otishi, fuqarolarni Vatan taqdiri uchun mas’ul shaxslarga aylantirishni maqsad qilishi, XXI asr taraqqiyoti talab qiladigan darajadagi kadrlarni yetishtirishga munosib hissa qo‘shishi zarur. Bu esa yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish, raqamli iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yish, sanoatni, turizmni yuksak darajalarga ko‘tarish, ilm-fanni o‘stirish, ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ham bilimli, ham ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashni o‘z ichiga oladi.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUDINING 541 YILLIGI

SHOH VA SHOIRGA YUKSAK EHTIROM

Andijonda o‘zbek mumtoz adabiyotining zabardast vakili, buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, olim va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541 yilligiga bag‘ishlangan adabiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

Viloyat hokimligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi hamkorligida tashkil etilgan tadbirda shoir va yozuvchilar, yurtimizdagi va xorijlik boburshunos olimlar, keng jamoatchilik vakillari, yoshlar ishtirok etdi.

Tadbir avvalida ishtirokchilar tomonidan Bobur haykali poyiga gulchambarlar qo‘yilib, ulug‘ shoirga yuksak ehtirom ko‘rsatildi.

So‘ng viloyat teatrlari san’atkorlari tomonidan Bobur hayoti va ijodiga oid sahna ko‘rinishlari namoyish etildi.

Keng sahnaga mahzun musiqa sadolari ostida salobatli, lekin yuz-ko‘zlarida g‘am-anduh namoyon Bobur Mirzo kirib keldi. U o‘z davrining nohaqlik, adolatsizlik, boshidan o‘tkazgan azob-uqubatlari haqida bitgan g‘azallaridan birini o‘qiy boshladi.

(Davomi 3-sahifada).

MOZIYGA QARAB

“BOTMASIN CHIQQAN QUYOSH...”



Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori, professor

ORZU

Jadidlik davrining butun ijtimoiy-siyosiy mohiyatini namoyon qiladigan, bu davrni ichdan yoritib turgan va, ayni damda, o‘zining qisqa umri bilan barcha ongli ziyolilar qalbini birdek o‘rtab, larzaga solgan ulkan bir hodisa bor. Bu – Turkiston muxtoriyatidir.

Turkiston muxtoriyati yaqin tarixning eng murakkab, ziddiyatli va kun-bakun o‘rganilishi lozim bo‘lgan sahifalaridan biri sanaladi. Chunki bunda chorizmdan qutulish, Muvaqqat hukumat siyosati, yolg‘on va’dalar bilan bolsheviklarning hukumat boshiga kelishi, butun xalqni – ishchi va dehqonlarni hukmronlik kursilariga o‘tqazish bilan qiziqtirish kabi voqealar talqini sinchkovlikni talab qiladi. Boshqa tomondan hali bu davrda, garchand Chor Rossiyasiga qaram bo‘lsalar-da, Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi qaysidir ma’noda mustaqil siyosat yuritar edi. Turkiston muxtoriyatining ular bilan munosabati ham qiziq. Bir tomoni Qo‘qon, Toshkent va Samarqand bilan bog‘liq bo‘lgan Muxtoriyatning qamrov hududi ancha keng edi. Manbalarda aholisining soni 10 mln. deb ko‘rsatiladi.

(Davomi 7-sahifada).

2024-yil 16-fevral
№8(8)

O‘ZBEK MILLIY RUHI ZAVOL BILMAGAY

Boshlanishi 1-sahifada

Munojat Yo‘lchiyevaga “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilgani bejiz emas. Bu yuksak e’tirof, avvalambor, u kishidagi temir intizom, fidoyilik, o‘ziga nisbatan o‘ta talabchanlik va kuchli irodaning tasdig‘idir.



Frederik Bressand

YUNESKO qarorgohida Xiva va Buxoro, keyinroq Toshkent shahrining yubileylari munosabati bilan uyushtirilgan konsert dasturlarida Munojat Yo‘lchiyevaning yulduzli onlariga shaxsan guvoh bo‘lganman. Bu tomoshalarga hofizamizning yuzlab ixlosmandlari nafaqat Fransiya, ayni vaqtda Belgiya, Niderlandiya, Germaniya, Ispaniya, Shveytsariyadan, qo‘yingki, butun Yevropadan yog‘ilib kelganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman.

Albatta, bu odamlar o‘zbek tilini tushunmasdi, ammo ular xonandamizning mo‘jizakor ovozini eshitib, yurak-yuragidan chiqayotgan nola va dardlari, sahnada o‘zini beqiyos husni tavajjuh bilan tutishi, yuksak darajadagi san’atkorona mahoratni ko‘rib, tik turib olqishlab qarsak chalishgani hamon ko‘z oldimdan ketmaydi.

Shaxsan men bugungi kechadan katta ma’naviy oziq oldim. Maqom malikasining teran dard va iztirob bilan ijro etgan o‘lmas qo‘shiqlarini sel bo‘lib tinglar ekanman, o‘zbek xalqining necha ming yillik tarixi, ota-bobolarimiz boshidan kechirgan mashaqqat va azoblar, qirg‘in-u qatag‘onlar, ularning ozodlik va ezgulik uchun asrlar davomida olib borgan mardona kurashlari ko‘z oldimdan birma-bir o‘tgandek bo‘ldi.

Shu asnoda beixtiyor bir savol tug‘iladi: biz nega yengil-yelpi tomoshalarni, saqich chaynab, bodroq kavshab ko‘riladigan konsert-u filmlarni xush ko‘ramiz? Sababi oddiy — ular bizni o‘ylash, fikrlash degan tashvishdan xalos qiladi.

Mumtoz san’at esa buning aksidir. U shunchaki hordiq chiqarish vositasi emas, avvalo, qalb so‘rog‘i, vijdon qiynog‘idir.

Mumtoz san’at asarlari odamzotni hayot haqida o‘ylashga undaydi, oxirat kuni savol-javob muqarrar ekanini esga soladi. Dunyoga kelib halol-pok yashadimmi, ota-onam oldidagi qarzimni uzdimmi, farzandlarimga to‘g‘ri tarbiya berdimmi, xalq, millat, Vatan oldidagi burchimni ado eta oldimmi, degan og‘ir-og‘ir savollarni o‘rtaga tashlaydi. Xohlasak-xohlamasak, bizni shu haqda mulohaza va mushohada yuritishga, insonlik maqomiga qaytishga majbur qiladi.

Bugun Munojat Yo‘lchiyeva qariyb ikki soat davomida aynan mana shu haqda yonib kuyladi. Biz yumshoq kreslolarda bemalol o‘tirib konsert tomosha qildik, ammo bu inson tik oyoqda turgan holda, ana shunday og‘ir “yuk”ni o‘z yelkasida ko‘tarib, mislsiz ruhiy bosimni o‘zining nozik yuragidan o‘tkazib kuyladi.

Shu sababli Simpoziumlar saroyida bo‘lib o‘tayotgan ushbu ijodiy-ma’rifiy kecha katta ibrat namunasi sifatida ta’sirchan tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunday go‘zal dasturlarni yana ko‘plab uyushtirishimiz kerak.

Takror aytishga to‘g‘ri keladi – og‘ir, tahlikali davrda yashayapmiz. Ko‘p mamlakatlarda milliylik, oilaviy qadriyatlar, ezgu tuyg‘ular tobora tanazzulga yuz tutmoqda.

Bunday qaltis zamonda kim, qaysi xalq bu kabi xuruj va bo‘hronlardan omon chiqa oladi? Kim bu kabi hayot-mamot sinovlariga mardona bardosh berib, ularga qarshilik ko‘rsata oladi? Albatta, mustahkam irodasi bilan o‘z milliy tabiatini saqlay oladigan, o‘z g‘urur va iftixorini mahkam tutgan, yagona xalq bo‘lib birlashgan millat va jamiyat o‘zligini yo‘qotmaydi.

Taskin shuki, Munojat Yo‘lchiyeva kabi ulug‘ san’atkorlarimiz bor ekan, o‘zbek milliy ruhi zavol bilmagay”.

Mana shunday shukuhli kunda faqat o‘z shon-shuhratiga g‘arq bo‘lmasdan, dunyodan o‘tib ketgan mehribon ustozi – mashhur sozanda va bastakor Shavkat Mirzayev xotirasini yod etishi Munojat Yo‘lchiyevaning yuksak insoniy xislatlarini yana bir bor namoyon etdi, ayni paytda, barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun insoniylik sabog‘i bo‘ldi.



Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutining Maqom xonandaligi kafedrasi sozandalari, shuningdek, ustoz san’atkor Munojat Yo‘lchiyevaning iqtidorli shogirdlari To‘rabek Muxtorov va Adolat Ismoilova ijro etgan kuy-qo‘shiqlar unutilmas kechaga o‘zgacha fayz va shukuh bag‘ishladi.

Taassurotlarimiz so‘ngida barcha san’at ixlosmandlari nomidan hurmatli san’atkorimiz Munojat Yo‘lchiyevaga mana shunday chinakam ma’rifat kechasi uchun alohida tashakkur izhor etamiz, bu unutilmas tadbirni tashkil etgan barcha fidoyi insonlarga, Madaniyat vazirligi xodimlari, Maqom ansambli jamoasiga, rejissyorlarimizga minnatdorlik bildiramiz.

O‘ylaymizki, ming-minglab qalblarga ma’naviy uyg‘oqlik baxsh etadigan bunday san’at bayramlari muhtasham saroy sahnasida muntazam davom etadi.

B.ISKANDAROV

“NONDAN SO‘NG ENG MUHIMI MAKTABDIR”

Boshlanishi 1-sahifada

Opaning jaydari gaplaridan uning juda tantiligini his qildim. Eshitayotganlarim hayrat, ham sururga ko‘mdi. 2018-yilda direktorlikka tayinlangan Diloro Jumayeva o‘quv dargohining faoliyatini qayta yo‘lga qo‘yish, ta’lim sifatini oshirish uchun yo‘l xaritasini tuzdi. Bu boradagi chora-tadbirlarni beshta muhim maqsadga jamladi. Bular – mustahkam boshlang‘ich ta’lim, xalqaro sertifikatlarga ega o‘qituvchilar jamoasini shakllantirish, maktabda yetakchilar klublarini tashkil qilish, qo‘shimcha pullik xizmatni joriy etish va oliy ta’limga kirishni ko‘paytirish.

Direktor jamoasiga qattiq ishlash kerakligini, bir o‘zi hech narsa qilolmasligini tushuntirdi. Jamoa rahbarning rejalarini qo‘llab-quvvatladi. Ishni o‘quvchi sonini ko‘paytirishdan boshlash kerak edi. “Bolangiz kelajakda qanday maktabda o‘qiydi?”, “Maktabimiz yaqin yillarda qanday ko‘rsatkichlarga erishadi?” kabi mavzularda slaydlar tayyorlandi. Odamlarning ishdan qaytish vaqtiga to‘g‘rilab, ko‘p qavatli uylarning bolalar maydonchalarida tayyorlangan slaydlar namoyish etildi. Xonadonma-xonadon kirib, tashviqot ishlari olib borildi. Direktorni yana bir tashvish – ta’mir masalasi ham o‘ylantirardi. Mahallaga kelgan sayyor kamerani “tutib kelib” maktabni tasvirga tushirtirdi va bu kimgadir yoqmay uch oy lavozimidan chetlatildi ham.

– Bo‘ldi, endi ketdim, deb o‘ylovdim, – deydi Diloro opa u kunlarni eslab. – Lekin qaytarib joyimga qo‘yishdi. Bu menga katta kuch berdi. Avval ishlamagan bo‘lsam, mana endi ishlayman, dedim. Hech qancha o‘tmay, maktab davlat dasturiga kirdi va ta’mirlash ishlari boshlanib ketdi. O‘qishni aviatsiya bilim yurtining yotoqxonasiga ko‘chirdik. “Ana endi unaqa maktabda o‘qiymiz”, “mana bunaqa sharoitlar bo‘ladi”, deb tashviqotlarga yanada kuch berdik. Odamlar bolalarini yotoqxonaga olib kela boshladi. Sharoitdan qiynalsak ham ta’limni kuchaytirdik. Shu yili o‘quvchilarimning “Zakovat” klubi maktabga vazir kubogini taqdim etishdi.

Ayni paytda maktabda 2284 nafar o‘quvchi ta’lim olmoqda. Darslar to‘liq o‘zbek tilida olib boriladi. Ustoz-murabbiylar yuqoridagi besh maqsadni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Maktabdagi ta’lim uslubining diqqatga sazovor bir tomoni bor: “Bolaga ota-onasidan so‘ng, eng katta ta’sir o‘tkazuvchi shaxs – uning birinchi muallimi!”, degan shior ostida ishlashadi. Ya’ni, asosiy e’tibor boshlang‘ich ta’limga qaratilgan. Boshlang‘ich sinflar direktorning qat’iy nazoratida. Uning fikricha, o‘quvchi avvalo birinchi ustozidan “rang oladi”.

– Kuzatuvlarimdan bildimki, ilk ustozidan bola ko‘p narsa “yuqtirar” ekan, – deydi u. – O‘qituvchi qancha tirishqoq bo‘lsa, o‘quvchisi ham jon-jahdi bilan o‘qiydi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf ustozlarini qattiq ushlayman, ko‘p tergayman, boladan shikoyat qilishiga yo‘l bermayman. Ota-onalarga o‘sha paytlarda bergan va’dalarimizning ustidan chiqyapmiz. Bugunga kelib, murabbiylarning ko‘pchiligi xalqaro sertifikatlarga ega. Maktab yetakchilari o‘z klublari ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ygan. Maktabda yoshlar ishlari bo‘yicha yetakchi etib saylangan Shohjahon Abdullajonov, “Lider qizlar” klubining rahbari Sevinchxon Abloyeva faol yoshlarni o‘z atrofiga jamlagan, ular o‘tkaziladigan barcha tadbirlarga bosh-qosh. Bundan tashqari, qo‘shimcha pullik xizmatlar tashkil etdik. O‘quvchilar bo‘sh vaqtlarida texnologiya darslarida ishlab chiqargan xomashyolarining yarmarkalarini uyushtiramiz. Sentyabr oyidan yig‘ila boshlanadigan mahsulotlar o‘quv yili oxirida savdoga qo‘yiladi. Tushgan pullar ma’lum miqdorda rag‘batlantirish uchun o‘quvchining o‘ziga ham beriladi. Qolgan qismi maktabning maxsus hisob raqamiga tushadi. Fanlardan qo‘shimcha pullik repetitorlik kurslari ham tashkil qilingan. Bundan tushgan mablag‘ning yetmish foizini qo‘shimcha darslar uchun o‘qituvchilarga ajratganmiz. Yuqorida aytilgan besh maqsadning to‘rtinchi bosqichi shu tariqa amalga oshyapti. Bularning ortidan oliy ta’limga kirishni ko‘paytirish masalasi ham o‘z-o‘zidan yechilyapti.

Maktabning maxsus hisob raqamiga to‘xtalsak, qonuniy qo‘shimcha pullik xizmatlar evaziga sarmoya yig‘iladi. 255-maktabning boshqa maktablarga ibrat bo‘ladigan tomoni shundaki, hisob raqamida yiliga 130-140 million so‘m aylanib, bu pullar o‘quv dargohida ta’limni yanada yuqori bosqichlarga ko‘tarish, eng faol o‘quvchi va o‘qituvchilarni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan.



Maktabda 84 ta to‘garak faoliyat olib boradi. Bundan tashqari, ko‘plab loyihalar ilgari suriladi. O‘quvchilarning ishtiyoqini kuchaytirish maqsadida tatbiq qilingan “Humo pul birligi” ana shunday loyihalardan biridir. Bu “pul birligi” maktabning o‘z logotipi bilan ishlangan bo‘lib, faqat bir marta maktab hududidagina tashkil qilinadigan o‘quv qurollari yarmarkasida foydalaniladi. Ya’ni, har yigirmata “5” baho uchun o‘quvchiga besh “humo”dan berib boriladi. O‘quvchi olgan “humo”larini yarmarka bo‘ladigan kunga qadar yig‘ib boradi va o‘zidagi “humo”lar qiymatida daftar, ruchka va shunga o‘xshash o‘quv qurollarini bepul olish huquqiga ega bo‘ladi. So‘m bilan “humo” ekvivalenti esa sotib olingan o‘quv qurollaridan kelib chiqib hisobga to‘g‘rilanadi.

E’tiborlisi, “Mening galereyam” burchagida har hafta bir o‘quvchining chizgan va yasagan buyumlari qo‘yib borilar ekan. Ayniqsa, qo‘g‘irchoq spektakli uchun teatr burchagi tayyorlanib, unda o‘qituvchilar tomonidan har xil ertak va pyesalar namoyish etilishidan hayratga tushdik. Maktab radiouzelida vaqti-vaqti bilan maktab madhiyasining yangrashi ishlarning yangicha olib borilayotganidan darak. Sinflar kesimida muntazam o‘tkaziladigan “Kitobxon ona” tanlovining navbatdagi bosqichiga esa o‘zimiz guvoh bo‘ldik. Tanlov Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Mungli ko‘zlar” asari asosida, 2-sinflar onalari o‘rtasida bo‘lib o‘tdi. Oltmish nafar onaning olti guruhga bo‘linib, asar syujeti, qahramonlari va har bir detali bo‘yicha qizg‘in bahslashganini ko‘rib, “mana, bo‘lar ekan-u”, deganimizni bilmay qoldik. Tanlov shartiga ko‘ra, asarni o‘qib chiqqan onalar uning mohiyatini nutqi, suratlari va rebuslar orqali ifodalab berishdi va bu olti ballik tizimda baholanib, g‘olib guruh tashakkurnomalar va sovg‘alarga ega bo‘ldi.

– Kitobxonlik bahslaridan shuni angladimki, kitob o‘qigan onaning bolasi jinoyatga qo‘l urmas ekan, – deydi yosh ona Guljahon Yoqubova. – Kitob o‘qimagan ayol esa bolaga to‘g‘ri tarbiya berolmasligi mumkin. Xudo biladi, anglamagan holda tarbiyada qanchadan qancha xatolarga yo‘l qo‘yayotgan ekanmiz. Yana bir gap: shu tanlov tufayli har haftada oilamiz uchun bitta kitob sotib olyapmiz. Demakki, bu tanlovda oltmish kitob sotib olindi, oltmishta xonadonga ziyo kirib bordi.

Ha, maktabning ish koeffitsiyenti keyingi to‘rt yilda uch karra oshgani bejiz emas. Bu shunchaki faoliyat qamrovi emas, ta’lim-tarbiya borasida ham natija shunday. O‘quvchilar ruhiyati, o‘qituvchilar kayfiyatidan o‘zingiz ham bunga amin bo‘lasiz.

– Odatda muvaffaqiyatga erishayotgan bolalarimga emas, o‘z yo‘lini topa olmayotgan o‘quvchilarimga e’tibor qarataman, – deydi direktor. – Bola o‘qishga qiziqmayaptimi, nimaga qiziqishi borligini o‘rganish kerak. Hammani olim qilib bo‘lmaydi, lekin odam qilib tarbiyalashimiz shart. Bilim olishga shashti past qizlarim bor. Ular tikuvchilik qiladi maktabda. Shunday o‘quvchilarimdan bittasi texnolog ustoziga bichim borasida u bilmagan narsani o‘rgatib qo‘ydi. Tikuvchi ustoz bir metr matodan ikkita fartuk chiqarsa, o‘quvchi qizim to‘rtta chiqarish mumkinligini ko‘rsatdi. Maktabda tikuv mashinalari bekor turmasin, ishlatinglar deyman. Qizlar choyshablar, dasturxonlar tikib, sovg‘abop qilib qutilarga joylashyapti. Ular tayyorlagan mahsulotlarni o‘qituvchilarning o‘zlari sotib olishyapti. Kerakli xomashyoni o‘zim olib beraman. Biror o‘quvchi maktabda bekor yurmaydi. Hammasi band. Endi o‘zingiz o‘ylang, kuni bo‘yi bo‘sh qolmagan bola uyiga charchab borgach, telefon titib, bo‘lmag‘ur tomoshalar ko‘rishga vaqt topa oladimi? Yo‘q. Buning o‘rniga u yangi g‘oya ishqida yonsa, o‘ylayotgan rejasini tezroq amalga oshirishga bel bog‘lasa... O‘quvchilarim orasida shuning uchun ham janjalkash, tarbiyasi og‘ir bolalar yo‘q.

O‘quvchilari bilan kimo‘zarga baliq boqayotgan, qush bozorga birga borib yurgan Xalq ta’limi a’lochisi Dilora Jumayevadan ta’lim-tarbiya sohasida ko‘p narsani o‘rganish mumkinligini his etdik. Bir kelsa qo‘sha-qo‘sha deganday, Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashi deputati Murodxon Jo‘rayev maktabning kirish joylariga beton quydirdi. O‘z okrugidagi oltita maktabga 19 donadan so‘nggi rusumdagi kompyuterlar, elektron doska va konditsionergacha o‘rnattirib, smartxonalar tashkil qildi, hatto mebellarigacha olib berdi. Yana shu inson tufayli maktabga kelgan mashhur kibersport ustasi bilan uchrashuv sabab, kibersport ham rivojlandi.

O‘tgan yili esa Avstraliyada faoliyat yuritayotgan Asadbek Umarov bo‘lib o‘tgan ota-onalar yig‘ilishida qatnashib, bundan keyin maktabimiz uchun har yili besh ming dollardan mablag‘ ajratib borishini e’lon qildi. Tadbirkor yigit ukasi shu yerda o‘qiyotgani tufayli maktab faoliyati bilan tanishligini aytdi. Avstraliyada o‘zining qurilish firmasi borligini bildirib, faqat ta’limga yo‘naltirish sharti bilan homiylik taklifini berdi. Shuningdek, shu maktabni tugatgan o‘quvchi Avstraliyadagi oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kiradigan bo‘lsa, uning shartnoma pulini to‘liq to‘lab berishini va o‘sha talabani o‘z firmasida ish bilan ta’minlashini ham e’lon qildi. Tadbirkor yigit dastlabki va’dasining ustidan chiqdi ham. Chunki, u yaxshi biladi, taniqli fransuz siyosatchisi Jorj Danton aytganidek, “Xalq uchun nondan so‘ng eng muhimi maktabdir”.

Muhayyo PIRNAFASOVA



SHOH VA SHOIRGA YUKSAK EHTIROM

Boshlanishi 1-sahifada

Charxning men ko‘rmagan javru jafosi qoldimu?!
Xasta ko‘nglum chekmagan dardu balosi qoldimu?!
Meni xor ettiyu qildi muddaiyni parvarish,
Daxri dunparvarning o‘zga muddaosi qoldimu?
Meni o‘lturdi jafoyu javr birla ul quyosh,
Emdi tirguzmak uchun mehru vafosi qoldimu?
Oshiq o‘lg‘ach, ko‘rdum o‘lumni o‘zumg‘a, ey rafiq,
O‘zga ko‘nglumning bu olamda harosi qoldimu?!
Ey ko‘ngul, gar Bobur ul olamni istar, qilma ayb,
Tengri uchun de, bu olamning safosi qoldimu?



Shundan so‘ng tadbirda so‘z olgan viloyat hokimi Shuhratbek Abdurahmonov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari, shoir Minhojiddin Mirzo, O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov tomonidan mamlakatimizda keyingi yillarda xalqimizning boy madaniy merosi, ayniqsa, buyuk bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab allomalar tomonidan yaratilgan nodir, bebaho ilmiy asarlarning jahon taraqqiyoti, ilm-fani rivojidagi ahamiyati, ilmiy salohiyati, insoniyat tafakkurining, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ma’naviyati, madaniyatini yuksaltirishdagi o‘rni va roli nihoyatda muhim ekanligi ta’kidlandi.

– Zahiriddin Muhammad Boburning serqirra ijodi juda katta tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega, – deydi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari, shoir Minhojiddin Mirzo. – Ayniqsa, uning shoh sifatida amalga oshirgan bunyodkorlik, ilm-ma’rifat rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi, shoir, ijodkor sifatida butun dunyoga ma’lum va mashhurligi har bir yurtdoshimiz qalbini faxr-iftixorga to‘ldiradi.

Ulug‘ bobomizning adabiyot, tarix, tilshunoslik, huquqshunoslik, musiqa va geografiyaga oid asarlari bizga tariximiz haqida juda ko‘p ma’lumotlar berish bilan birga, o‘sha davr yozma manbalarini o‘rganishimizda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bobur nomli xalqaro jamoat fondi Qirg‘iziston bo‘limi rahbari, professor Begijon Ahmedov, boburshunos olim Hamidullo Boltaboyev Bobur hayoti va ijodi, o‘lmas asarlari, boburiylarning Hindiston, umuman, jahon taraqqiyotidagi o‘rni va roli, bugungi kunda Bobur ijodini o‘rganish, tadqiq etish borasida olib borilayotgan ishlar haqida gapirdi.

Adabiy tadbirda Andijondagi oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar, shuningdek, Andijon davlat universiteti talabalari, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi o‘quvchilari tomonidan Boburning g‘azal va ruboiylaridan namunalar o‘qildi.

Tadbir yakunlangach, Andijon shahrining Navoiy, Amir Temur shoh ko‘chalari bo‘ylab yoshlarning “Bobur izdoshlarimiz” shiori ostida yurishi o‘tkazildi.

Adabiy tadbir kunning ikkinchi yarmida viloyat hokimligida “Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy-adabiy merosining uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda tutgan o‘rni” mavzusidagi ilmiy anjuman doirasida davom etdi.

Anjumanda Bobur ijodining o‘ziga xos qirralari, ilmiy-ijodiy merosini o‘rganish, tadqiq etish, bugungi avlodni tarbiyalash, tafakkurini yuksaltirishdagi o‘rni, roli va ahamiyati haqida so‘z yuritildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kuniga bag‘ishlangan bu kabi tadbirlar viloyatdagi mehnat jamoalarida, ta’lim muassasalarida bo‘lib o‘tdi.

Faxriddin UBAYDULLAYEV,
O‘zA muxbiri

BUYUK SARKARDA YODI

Adib, olim, yirik davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541 yilligi munosabati bilan Adiblar xiyobonidagi shoir haykali poyida “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Zahiriddin Muhammad Bobur merosining o‘rni va ahamiyati” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.



O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbirda ziyolilar, yozuvchilar, shoirlar, harbiylar, yoshlar jam bo‘lishdi.

Dastur avvalida Zahiriddin Muhammad Bobur va uning askarlari hamda harbiy xizmatchilar va yoshlarning tantanali saf yurishi o‘tkazildi. Shundan so‘ng, Bobur haykaliga ijodkorlar, keng jamoatchilik vakillari ishtirokida gullar qo‘yildi.

Tadbirni Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid kirish so‘zi bilan ochib berdi. U o‘z nutqida “Shoirligi shohligidan, shohligi shoirligidan ulug‘” hazrati Bobur qisqa bo‘lsa-da, nechog‘li ziddiyat va qarama-qarshiliklar, matonat va jasoratlarga boy, sertahlika va sermazmun hayot yo‘lini bosib o‘tgani barchaga yaxshi ma’lum ekanligini ta’kidladi. Vaqt o‘tgani sari ulug‘ ajdodimizdan qolgan ulkan ijodiy merosning qadr-qimmati yanada zalvor va salmoq kasb etayotganini aytdi.

– Bugun yurtimiz bo‘ylab Bobur ilmiy-adabiy merosini o‘rganishga keng e’tibor qaratilmoqda, – dedi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i o‘rinbosari, polkovnik Ikrom Mahmudov. – Uning hayot va ijod yo‘li yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta maktab vazifasini o‘tamoqda.

Unda yosh ijodkorlar, kursantlar tomonidan Vatan madhini tarannum etuvchi Bobur g‘azallaridan namunalar o‘qildi, hofizlarning qo‘shiqlari tinglandi. Harbiylar shoirning hayotiga bag‘ishlangan sahna ko‘rinishlarini namoyish qildi. Yosh rassomlarning rasmlar ko‘rgazmasi esa barchani o‘ziga jalb etdi.

Zulayho AHMADJONOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bosh mutaxassisi

“Andijonning ...qovun va uzumi bisyor yaxshi bo‘lur. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo‘lmas”

O‘zbekistonning Turkiyadagi elchixonasi tashabbusi bilan ushbu mamlakatning Bursa shahrida adib, olim, sarkarda, yirik davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541 yilligi munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

Unda amaliy safar bilan Turkiyada bo‘lib turgan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, taniqli boburshunos Zulxumor Xolmonova va mezbon davlat oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan vatandosh talabalar qatnashdi.

Taniqli boburshunos Zulxumor Xolmonova buyuk mutafakkir va davlat arbobi, xassos shoir Bobur merosini o‘rganish bugun tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta’kidladi. Olima o‘z ma’ruzasi davomida boburshunoslik yo‘nalishidagi so‘nggi ilmiy yangiliklar, xalqaro miqyosda, xususan Turkiya oliy ta’lim muassasalarida



Bobur adabiy merosini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar, shoir ijodining rang-barang qirralari tadqiqi haqida batafsil to‘xtalib o‘tdi.

“Bobur – buyuk ajdodimiz. Uning asarlari shu qadar serqirraki, teranroq mutolaa qilgan har bir kishi o‘z holi va vaziyati uchun muhim o‘gitlarni kashf eta oladi. Ayniqsa, siz kabi Vatandan uzoqda ta’lim olayotgan yoshlarimiz uchun buyuk ajdodimiz hayotida o‘rnak jihatlar bisyor, – dedi Zulxumor Xolmonova. – Bobur Vatanga muhabbat qanday bo‘lishini o‘z hayoti davomida sidqidillik bilan ko‘rsatib bergan, asarlarida ham ifoda etgan zot. U Hindistonda yozgan satrlarida ona yurtini bot-bot sog‘inch bilan tilga oladi. Jumladan, satrlaridan birida “Andijonning ...qovun va uzumi bisyor yaxshi bo‘lur. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo‘lmas”, deb yozadi”.

Tadbir davomida buyuk ajdodimizning hayotida bugungi yoshlarimiz uchun yuqoridagi kabi ko‘plab namunaviy jihatlar borligi ta’kidlandi. Jumladan, Boburning o‘z farzandlariga va turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan munosabati va hurmati, oila ichidagi axloq-odob va mehr-muruvvati o‘rnak ekani bildirildi.

Qayd etilganidek, Boburiylar tomonidan barpo etilgan Tojmahal – butun insoniyat tarixida mehr-muhabbatni aks ettiruvchi eng muhtasham yodgorlikdir. Ushbu me’moriy durdona ajdodlarimiz tomonidan ayolga ko‘rsatilgan e’tibor va qadr-qimmat naqadar yuksak bo‘lganini yorqin ko‘rsatib turibdi.

Ma’rifiy tadbir yakunida talaba yoshlar Zahiriddin Muhammad Bobur haqida o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. Shuningdek, talabalar tomonidan Bobur g‘azallaridan namunalar o‘qildi.

“Dunyo” AA,
Bursa sh.

E’TIROF

Kuni kecha O‘zbekiston xalq rassomi, Davlat mukofoti sovrindori Jaloliddin (Ravshan) Mirtojiyev (1954-2015) tavalludining 70-yilligi munosabati bilan haykaltarosh yashagan poytaxtimizning Amir Temur ko‘chasi 89-“A” uyda yodgorlik lavhasi hamda O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasida “Men o‘zbekning musavviriman” nomli xotira ko‘rgazmasining ochilish marosimlari bo‘lib o‘tdi.

HAYKALTAROSHLARNING ADIBI

Tadbirlarda so‘zga chiqqan O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi Akmal Nur, O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov, O‘zbekiston xalq rassomi Javlon Umarbekov, O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, O‘zbekiston xalq rassomi Jasvant Annazarov va boshqalar atoqli haykaltaroshning mehnatkashligi, mehribon ustozligi hamda ijodining o‘ziga xosliklari haqida o‘z fikrlarini aytib o‘tdilar.

Har yili Andijon shahri markazida buyuk shoir va shoh Zahiriddin Muhammad Bobur sharafiga o‘rnatilgan mahobatli haykal poyiga gullar qo‘yganimizda, ushbu yodgorlik muallifi, O‘zbekiston xalq rassomi Jaloliddin Mirtojiyev (1954-2014) yodimga tushadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Bobur bobomiz tavalludining 510 yilligi munosabati bilan o‘rnatilgan bu yodgorlik nafaqat andijonliklar, balki barcha yurtdoshlarimiz qalbiga mislsiz g‘urur bag‘ishlagan edi. Yodgorlik haqida Jaloliddin aka 2013-yilda bo‘lib o‘tgan suhbatimizda: “Bu birinchi va muvaffaqiyatli katta ishim. Ijodiy parvozlarga yo‘l ochgan asarim. Meni doim Bobur bobomizning ruhi qo‘llaydi!” degan edi.

Haqiqatan, hamisha qizg‘in ijodiy jarayon ichida bo‘lgan haykaltarosh qisqa umri davomida ko‘plab o‘lmas asarlar yaratib, xalqimiz, adabiyot va san’at ixlosmandlari qalbida o‘chmas iz qoldirdi.

Asli toshkentlik bo‘lsa ham, Jaloliddin akaning yoshligi Andijonda o‘tgan, shu yerda o‘rta maktabni bitirgan, 1977-yili Toshkent teatr-rassomchilik institutini tugatgach, mehnat faoliyatini ham Andijonda boshlab, 1997-yili poytaxtga kelgan. Shu sababdanmi, vodiy xalqining orzu-armonlarini chin qalbdan his etgan rassomga bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur haykalini yaratish baxti nasib etgandir.



Abdurauf Fitrat haykalini ishlash jarayonida. 1996-yil.

Jaloliddin Mirtojiyevning 70-yilligi munosabati bilan tug‘ilgan kuni (17-fevral) arafasida uning ijodiga bag‘ishlangan katta ko‘rgazma ochilishini bir jihatdan Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kuniga bog‘lasa ham bo‘ladi. Chunki namoyish etilayotgan asarlar orasida Boburning Andijondagi haykalidan boshqa 1995-yilda yaratilgan “Chavgon o‘ynayotgan Bobur” nomli kompozitsiyasi (hozir bu asarning asli Shveytsariyaning Lozanna shahridagi muzeyda saqlanadi) ham, Adiblar xiyoboniga o‘rnatilgan Bobur haykali ham o‘rin olgan. Har uch asar bir-biridan ham mazmunan, ham shaklan farqlanib, buyuk bobomiz hayotining turli davrlarini aks ettiradi.

Jaloliddin aka o‘z ijodini adabiyotga bag‘ishlagan, deb aytish mumkin. Bunga ko‘plab misollar bor. Ayniqsa, dastlabki ishlaridan biri – “Poeziya” nomli bejirim haykalchasini yaratilishi bejiz emas. Bir qarasangiz, samoviy ohangga mahliyo bo‘lgan, bir qarasangiz xirgoyi qilayotganga o‘xshash bolakay timsolida muallifning o‘zini tasavvur qilsak ham xato bo‘lmaydi. Bu ilhom onlari... Irland shoiri Persi Bishi Shelli zavqiyob lahzani o‘zgacha ta’riflagan: “Olamni unutib, yolg‘iz o‘ylarga berilgan bolakay beixtiyor shodligini xirgoyi va xatti-harakatlari orqali ifodalaydi; uning ishoralari, qo‘shig‘ining ohangi qalbidagi yoqimli kechinmalarga uyg‘un keladi, jo‘shqin tuyg‘ularini namoyon etadi”.

Shuningdek, bronzadan ishlangan “Qishloqda yoz”, “Oy tutilishi” singari shoirona asarlari “Poeziya” haqida aytgan fikrlarimizni tasdiqlaydi. Albatta, adabiyot namoyandalarining siymolarini yaratishga bel bog‘lagan san’atkorning o‘zi ham hassos qalb egasi bo‘lgan.



AQSH. Kongresslar kutubxonasidagi Alisher Navoiy haykali. 2007-yil.

Keyinchalik adabiyotning sehrli dunyosida hayratga tushgan haykaltarosh allomalarning siymolarini aks ettirishga kirishdi: mutafakkir Alisher Navoiy bobomizga bag‘ishlangan haykallari Yaponiya, Rossiya, Latviya va Ozarbayjonda o‘rnatildi.

Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek singari allomalarga bag‘ishlangan asarlari sharofati bilan dunyoning Vashington, Chan-Chun (Xitoy), Qohira kabi o‘nga yaqin shaharlariga borish baxtiga yetishdi.

Yurtimiz allomalarining siymolarini mehr-sadoqat bilan yaratgan ijodkorning turli janrlardagi asarlari yuqorida ta’kidlangan davlatlardan tashqari Fransiya, Koreya, Xitoy, Turkiya singari o‘nga yaqin mamlakatlardagi muzeylarda saqlanmoqda. Mirtojiyevning xalqaro miqyosdagi obro‘si ham havas qilgulik: Tokio Fudji badiiy muzeyining medali sohibi, Shanxay universitetining faxriy professori...

Haykaltarosh asarlarining yaratilish sanalariga qarasak, O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillaridan Jaloliddin Mirtojiyev ijodida yuksalish davri boshlanganiga guvoh bo‘lamiz. Yurtimiz mustaqilligi sharofati bilan millat tarixining nurli sahifalari ochilishi ijodkorga so‘nmas ilhom, imkon, yangi ijodiy mavzular berdi. Istiqlol barcha sohalarda taraqqiyot yo‘lini ochganidek, san’atning mahobatli haykaltaroshlik yo‘nalishida ham chinakam rivojlanish jarayonlari boshlandi. Bu, ayniqsa, Mirtojiyevning ijodiy faoliyatida yaqqol ko‘rinadi. Respublikamizda yigirmadan ortiq, xorijiy mamlakatlarda o‘nga yaqin ijodiy ishlari e’tirof etildi. Milliy ma’naviyatimizning yanada yorqin namoyon bo‘lib borishi, qolaversa, millatimiz suyanchi – ulug‘ allomalar bois, ularga bag‘ishlangan asarlari bois xalqaro miqyosda tanildi.

O‘zbekiston Milliy bog‘i hududidagi Adiblar xiyobonida Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Zulfiyaxonim singari atoqli adiblarimizga bag‘ishlangan yodgorliklar ham Jaloliddin Mirtojiyev tomonidan ishlangan.

Mustaqillik sharofati bilan nomlari ulug‘langan jadid bobolarimiz – Cho‘lpon (Andijon, 1997-yil.), Fitrat (Buxoro, 1996-yil.), Elbek (G‘azalkent, 1998-yil.) siymolarining eskizlari, suratlari bilan tanishar ekansiz, qalbingizda faxr va hayrat tuyg‘ulari uyg‘onadi.

Shuningdek, Andijon, Jizzax, Farg‘ona shaharlaridagi “Motamsaro Ona” monumentlari, Qarshi shahridagi “El-yurt tayanchi” monumenti, Samarqand shahridagi Ro‘dakiy, Toshkent shahridagi Abdulla Qodiriy haykali... Bu ro‘yxatni istagancha davom ettirish mumkin. Ular hali san’atshunoslar tomonidan chuqur o‘rganilishi, muallifning mahorati, tasviriy san’atdagi o‘ziga xos uslubi ilmiy jihatdan ta’rif va tavsiflanishi maqsadga muvofiqdir.

Albatta, Jaloliddin akaning tasviriy san’atda bunchalik katta muvaffaqiyatlarga erishuvi zaminida uning kamtarligi, mehnatsevarligi, izlanuvchanligi va eng asosiysi, Vatanga, adabiyotga muhabbati turganini e’tirof etamiz.

Humoyun AKBAROV

G‘URBATDA BITILGAN TAQDIR G‘AZALI

Boshlanishi 1-sahifada

“Sanbal” chindan Hindistondagi bir viloyat va bu nom “Vaqoye”da ham keladi. Lekin “tatyir” so‘zi mavhum bo‘lib qolmoqda. Bunday joy nomi “Vaqoye”da ham, Hindistonda ham yo‘q.

Aslida baytda Boburning nafaqat o‘zining, balki o‘g‘li Muhammad Humoyun mirzo taqdiriga ham ishora bor. Chunki voqealarning tarixiy yechimi aynan shu o‘rinda Humoyun hayotidan bir hikoya qalamga olinganini urg‘ulaydi. Masalani oydinlashtirish maqsadida “Vaqoye”ga murojaat etsak.

Asarning hijriy 932 (milodiy 1525-26)-yil voqealari bayon etilgan qismida Bobur 13.844.000 tanga daromadga “...Sanbalni dag‘i Humoyung‘a inoyat qildim”, deya ta’kidlaydi. Shuningdek, asar oxirida kelgan (936/1529-yil) voqealar qismidagi so‘nggi tarixiy hodisa ham aynan Sanbal viloyatiga yuborilgan Humoyun hayotining bir qiyin payti bilan bog‘liq. Diqqat qilaylik:

“...Va Muhammad Humoyun, Sanbalg‘akim, aning joygiri edi, ruxsat berildi. Olti oygacha anda edi; zohiran ani yer va suyi xush yoqmadi. Isitma tutar ekandur, borabora uzoqqa tortar. To onki biz eshittuk, farmon berildikim, Dehlig‘a kelturub, Dehlidin kemag‘a solib keltursinlarkim, hakimi hoziqlar ko‘rub, dardig‘a davo qilsunlar. Bir necha kunda daryo yo‘li bilan kelturdilar va tabiblar har necha dor-u darmon berdilar, yaxshi bo‘lmadi. Mir Abdulqosimkim, ulug‘ kishi edi, arzg‘a yetkurdikim, ushmundoq dardlarg‘a darmon budurkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak. To inki Tengri taolo sihhat bergay. Men ko‘nglumga keldikim, Muhammad Humoyun(ning) mendin o‘zga yaxshiroq nimarsasi yo‘q. Men o‘zum tasadduq bo‘layin, Xudoy qabul qilsun. Xoja Xalifa, o‘zga muqarrablardin arzg‘a tegurdilarkim, Muhammad Humoyun sihhat topar, siz bu so‘zni nechun tilingizga kelturasiz. G‘araz budurkim, dunyo molidin yaxshisini tasadduq qilmoq kerak. Bas, o‘shal olmoskim, Ibrohimni urushida tushub edi, Muhammad Humoyung‘a inoyat qilib edingiz, tasadduq qilmoq kerak. Tilga keldikim, dunyo moli aning evazig‘a nechuk bo‘lg‘ay, men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkil bo‘libtur. Va andin o‘tubturkim, men aning



betoqatlig‘ini toqat kelturgaymen. O‘shal holatga kirib, uch qatla boshidin o‘rgulub, dedimkim, men ko‘tardim harne darding bor. O‘shal zamon men og‘ir bo‘ldum, ul yengil bo‘ldi. U sihhat bo‘lub qo‘pti. Men noxush bo‘lub yiqildim...”

Matndagi ostiga chizilgan satrlarga qaralsa, “dunyo moli”dan ham ortiq bo‘lgan o‘z jonini fido qilayotgan Boburning e’tiroflari haqqoniyligi hayratlanarli. Farzandi uchun o‘sha mashhur olmosni emas, o‘z jonini fido etishi rosmana mardlik namunasi edi. Keyingi o‘rinda u butun “ayoni davlat va arkoni mamlakatni chorlab” Humoyunga bay’at qildirgani, taxtni topshirgani va oldidagi kishilar ham buni qabul etganlarini yozadi.

Modomiki, masala shunday ekan baytdagi “tatyir” umuman xato bo‘ladi. She’r to‘g‘ri va aniq berilgan Rampur nusxasida bu so‘z “nazir” deb, keyinchalik (XVI asrning ikkinchi yarmida) kitobat etilgan Istanbul universiteti nusxasida bu so‘zdagi (ى “yo”) harfi nuqtali, qolgan harflar esa nuqtasiz berilgan. Shu boisdan ham keyinchalik uni o‘qishda yanglishishlar kelib chiqqan bo‘lishi ehtimol. Demak, baytni:

Taqdirdur ul yon-u bu yon solg‘uchi, yo‘qsa,

Kimga havasi Sanbal-u nazir qilibtur? –

deya o‘qish kerak.

Endi, “Boburnoma”dan keltirilgan voqealar bilan bog‘lasak (chunki she’r aynan shu vaqtda yozilgan), qo‘shmisraning mazmuni aniqlashadi. Ya’ni kishini dam u, dam bu tomon yo‘llaguvchi taqdirdir; agar shunday bo‘lmasa edi (Hindistonning) Sanbal(degan joyi)ni o‘z farzandiga nazir (teng) qilishni kim ham havas qilardi. Chunki taqdir yo‘llamasa edi, o‘sha tomon borilmagan bo‘lurdi. G‘azalning keyingi baytlarining mazmuni ham shunday yechimni beradi.

Bu Hind yeri hosilidin ko‘p ko‘ngul oldim,

Ne sudki, bu yer meni dilgir qilibtur.

Ya’ni Bobur: Hindistonni fath etish bilan bu yurtdagilarga zulm qilmadim, aksincha, ko‘p yaxshiliklar qildim; shuningdek, o‘zim bilan kelgan yurtdosh-u qo‘l ostimdagilarga ham benihoya himmat ko‘rsatdim, ko‘plab ko‘ngillarni xushnud etdim; ammo bu yaxshiliklarim hosilidan men o‘zim foyda ko‘rmadim, bil’aks, bu yer meni g‘amgin etib, ranjitdi, demoqda.

Yaxshi umidda o‘g‘liga hadya qilgan Sanbal viloyatida Humoyunning olti oy o‘tib-o‘tmay qattiq xastalanishi Bobushohni chuqur iztirobga solgani va baxshidasidan keyin o‘z umrining nihoyasini sezib qolgani g‘azalning so‘nggi baytidan ma’lum bo‘ladi:

Sendin bu qadar qoldi yiroq,

o‘lmadi Bobur,

Ma’zur tut, ey yor, ki taqsir qilibtur.

Ya’ni Bobur shuncha yil davomida sendan yiroqlarda qoldi-yu, o‘lmadi; ey yor, uni ma’zur tutginki, shu ishi sening oldingda aybidir.

Aslida, o‘limni bot-bot eslashdek tushkun kayfiyat Boburdek hayotsevar shoirga yotdek tuyuladi. Lekin u hayotining ba’zi damlarida shu kayfiyatni ham o‘zidan kechirgani ma’lum. Biz sharhini keltirayotgan “qilibtur” radifli she’rda esa bu taxlit kayfiyatdan ko‘ra afsus-nadomat ohangi ustunroq. Shu ma’noda, mazkur g‘azalni Bobur umrining so‘nggi yillarida yozilgan asarlaridan biri desak o‘rinlidir.

Bunday xulosaga sabab esa quyidagilardir:

Avvalo, bu she’r ilk bora Bobur devonining hijriy 935 (milodiy 1528)-yilda ko‘chirilgan Rampur nusxasida keladi (so‘ngra Istanbul universitetidagi qo‘lyozmada), shoir devonining boshqa (masalan, Parij, London, Haydarobod) nusxalarida uchramaydi.

Hindistonning Rampur shahri Rizo kutubxonasidagi (19 raqamli) bu qo‘lyozma shoir ijodiy merosini o‘rganishda juda muhim hisoblanadi. Qo‘lyozma faksimilyesini dastlab ingliz sharqshunosi Denison Ross (Kalkutta, 1910), keyinchalik akademik S.Azimjonova (“Indiyskiy divan Babura”. “Fan”, 1966) va professor Aziziddin Husayn (Rampur, 2014) e’lon qilgan.

To‘g‘ri, qo‘lyozma to‘liq devon shaklida emas, 22 varaqdan iborat kichik hajmli to‘plam. Unda “Risolai Volidiya”, 2 masnaviy, 24 ruboiy, 2 g‘azal, 3 qit’a va “Risolai aruz”dan bir parcha o‘rin olgan, xolos. Qo‘lyozma chiroyli ta’liq xati bilan ko‘chirilib, sahifalariga oltin suvi yuritilgan jadvallar ishlangan, unvon va bezakli. Yanada ahamiyatli jihati, faqat shu manbadagina Boburning o‘z yozuvi (avtografi) saqlanib qolinganidir. Buni esa, qo‘lyozmaning dastlabki sahifasida Bayramxon va oxirgi varag‘i hoshiyasida (Boburning avlodi) Shoh Jahon tasdiqlab ketganlar. Demak, manbaning ayrim sahifalari hoshiyasida Boburning tuzatma-tahrirlari bor.

Oxirgi sahifadagi Bobur yozuvi “Har vaqtki, ko‘rgasen mening so‘zumni...”, deya boshlanuvchi ruboiydir. Uni yozgach, muallif qo‘lyozmani katta o‘g‘li Muhammad Humoyun mirzoga jo‘natgan. Bunga oid dalil “Vaqoye”da ham keladi (357 b sahifa).

Endi sharhlanayotgan g‘azal matniga qaytsak.

Asarda ishora qilingan voqealar va “hajri” “pir” qilib, oxirida uzr so‘ralayotgan “yor” masalasi ham Bobur umrining oxirgi yillariga ishora qiladi.

G‘azal qofiyalarini yana bir karra yodga olaylik – pir, ta’sir, taqdir, nazir, dilgir, taqsir.

Mazkur so‘zlar vositasida shoir juda qiziq holat va lol qiluvchi ajib manzara chizadi. Ularga diqqat qilsak:

– birinchi baytda takrir san’atini qo‘llab, “g‘urbat” va “hajr”ni (ikkinchi misrada “hijron” tarzida) asosli keltiradi va “qarilikka” aynan shular “ta’sir” qilganini izohlaydi;

– ikkinchi baytda esa, “taqdir”ning o‘rtaga tushishi, uning banda sifatidagi qanchalik harakatiyu Tangrining ato etgan nasibasi o‘rinli bildirilgan;

– uchinchi baytdagi “nazir” ham bejiz emas; chunki insonni Sanbalgami, boshqa yergami uchirguvchi aslida taqdir shamolidir, sen unga har qancha nazir qilib, tenglashishga harakat qilmagin, baribir uning yozig‘i bo‘ladi;

– to‘rtinchi baytdagi “dilgir”lik shuncha yaxshilig-u ko‘ngil olishlikdan keyin “foydaga qolib tursa”;

– beshinchi baytdagi yiroqlarda qolib, o‘lolmay turgani aynan “taqsir”(qusur, ayb, gunoh)i bo‘lib ko‘rinadi va shuning uchun yoridan uzr so‘raydi.

Bu chizgilar esa juda badiiy va ayni damda tabiiy chiqqan.

Shoirning hayot yo‘li bilan g‘azaldagi voqelik qiyoslansa, qahramon yana Boburning o‘zi, voqealar esa uning umr manzaralaridir.

Xo‘sh, Bobushoh butun umri davomida intilib, jang-u jadallarda shijoat ko‘rsatib, fitnay-u balolarni yengib, dildan kuyib, yodlab eslagani g‘azaldagi bu “yor” kim?

Albatta, iymonli bir mo‘min sifatida Bobur mirzo Tangri taolo visolidan noumid bo‘lmagan va uni ko‘p vasf etgan. Qolaversa, real mahbubaga qarata bitilgan oshiqona tizmalari ham ko‘p. Lekin yuqorida zikri kechgan she’rdagi “hajri pir” qilgan “YOR”ni esa biz bu o‘rinda kamoli qoniqish bilan – VATAN, deya olamiz.

Birinchi baytda “oy hajri” haqida gap ketayotgani ayon. Ammo Bobur ona vatanini o‘ziga xos ravishda turli timsollarda bera olganini ham ko‘zdan qochirmaslik kerak. Qolaversa, “oy” – Bobur lirikasida bot-bot uchrab turadigan timsoldir. Agar mazkur g‘azalning “sharhi hol” ekanligini yana yodga olsak, bu jihat aynan ta’kidlangan mavzuning Bobur nazmida aks etganini isbotlaydi.

Shubhasiz, Bobushoh o‘z hayoti davomida juda ko‘p alam-u iztiroblar bilan birga farahbaxsh onlarni ham boshidan kechirgan. Biroq yuqoridagi kabi qalb misralariga tayangan holda komil ishonch bilan aytish mumkinki, u bir lahza bo‘lsa-da ona-Vatan yodini, unga qaytish fikrini xayolidan ketkazmagan, to‘g‘rirog‘i, ketkaza olmagan. Tahlil doirasiga tortilgan yuqoridagi g‘azal ham Zahiriddin Muhammad Bobushohning ana shu dard bilan yozilgan eng so‘nggi asarlaridan biridir..

Otabek JO‘RABOYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Zahiriddin Muhammad BOBUR

Manga habib kerak, yodgor nega kerak?!

G‘AZALLAR

Xati binafsha, hadi lola, zulfi rayhondur,
Bahori husnda yuzi ajab gulistondur.

Engi, mengi oy-u dag‘i yuzi, so‘zi gulu mul,
Qadi ravon-u tani jon-u erni marjondur.

Qoshida chin, ko‘zida kiyn-u angabin labida,
So‘zida zahr-u lekin tilida darmondur.

Qoshingg‘a ko‘p bora olmon, netay oraliqda,
Yoshim tishing duridin ayru bahri ummondur.

O‘tumni tez etasen har tarafg‘a sekritib ot,
Samandi noz inonini bir beri yondur.

Ne nav’ vasf qilay suvrating latofatini
Ki, husnunga sening, ey ruh, aql hayrondur.

Jafov-u javr agar qilsa, Boburo, netayin,
Ne ixtiyor manga, harne qilsa sultondur.

* * *

Baloyi ishqki, har dam manda jafoyedur,
Bu ishdin kecha olmon ajab baloyedur.

Xati labig‘a tutash bo‘lsa, ey ko‘ngul, ne ajab,
Ki Xizr chashmayi hayvong‘a rahnamoyedur.

Yarar bu xasta ko‘ngul dardig‘a o‘qin yarasi,
Magarki har yarasi yorning davoyedur.

Bahor faslidur-u may havosi boshimda,
Ayoq tut menga soqiyki, xush havoyedur.

Ul oy raqibg‘a bo‘ldi rafiq-u, Boburning
Rafiqe hamdami hajrinda oh-u voyedur.

* * *

Ko‘zumda muttasil ul egma qosh kerak bo‘lsa,
Qoshimda ko‘z yorug‘i ul quyosh kerak bo‘lsa.

Sujud vaqtida mehrob bo‘lmasun hargiz
Ki, bosh qo‘yarda o‘shal egma qosh kerak bo‘lsa.

Habib ishqida boshdin kech, ey ko‘ngul, yo‘q esa,
Bu yo‘lg‘a qo‘yma ayoq, sanga bosh kerak bo‘lsa.

Qo‘yub ayog‘ig‘a bosh, so‘rsa la’lidin har kim,
Boshig‘a tufroq-u og‘zig‘a tosh kerak bo‘lsa.

Sening bila bari el noxush o‘lsa, ey Bobur,
Ne bo‘lg‘usi sanga, ul yori xush kerak bo‘lsa.

* * *

G‘urbat-u hijrong‘a qoldim, oh ul jon ilgidin,
Jong‘a yettim emdi g‘urbat birla hijron ilgidin.

Ko‘rsatur gah tiyg‘-u gah o‘q holatimni bilmayin,
Ne balolar ko‘radurman yori nodon ilgidin.

El fig‘onimdin bejon-u men bu jondin, ey ajal,
Qil xalos elni-yu meni jon-u afg‘on ilgidin.

Bobur, ul oy hajrida ishing base dushvor edi,
Shukrkim, qutqardi o‘lum seni oson ilgidin.

* * *

O‘lum uyqusig‘a borib jahondin bo‘ldum osuda,
Meni istasangiz, ey do‘stlar, ko‘rgaysiz uyquda.

Nekim taqdir bo‘lsa, ul bo‘lur tahqiq bilgaysiz,
Erur jang-u jadal, ranj-u riyozat barcha behuda.

O‘zungni shod tutqil, g‘am yema dunyo uchun zinhor
Ki, bir dam g‘am yemakka arzimas dunyoi farsuda.

Zamona ahli ichra, ey ko‘ngul, oyo topilg‘aymu,
Seningdek dard paymov-u, meningdek dard paymuda.

Ulusdin tinmadim umrimda hargiz lahzaye, Bobur,
Magar o‘lsam bu olam ahlidin bo‘lg‘aymen osuda.

RUBOIYLAR

Jono, bitigingki, bo‘ldi marqum manga,
Mehnat bila g‘amni qildi ma’dum manga.
Ko‘rgach ani garchi shod behad bo‘ldum,
Mazmuni, vale, bo‘lmadi ma’lum manga.

* * *

Qayg‘ungni cheka-cheka qaribdur Bobur,
Rahm aylaki, o‘zidin boribdur Bobur.
Noranj yubordi sangakim, bilmagaysen,
Ya’niki, bu nav’ sarg‘oribdur Bobur.

* * *

Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,
Shod etmas emish ko‘ngulni g‘urbatda kishi.
Ko‘nglum bu g‘ariblikta shod o‘lmadi hech,
G‘urbatda sevunmas emish, albatta, kishi.

* * *

Ahbob, yig‘ilmoqni farog‘at tutungiz,
Jamiyatingiz borini davlat tutungiz.
Chun gardishi charx bu durur, tengri uchun,
Bir-birini necha kuni g‘animat tutungiz.

* * *

Sen gulsen-u men haqir bulbuldirmen,
Sen shu’lasen,ul shu’lag‘a men kuldirmen.
Nisbat yo‘qdur, deb ijtinob aylamakim,
Shohmen elga, vale senga quldurmen.

TUYUQLAR

Ulki, har ko‘zi g‘izoli Chindurur,
Qoshida payvasta oning chindurur.
Chunki ko‘p yolg‘on aytti ul manga,
Gar desam yolg‘onchi oni chindurur.

* * *

Sen kibi bir dilraboni bilmanam,
Oshiqi sodiqki derlar, bil, manam,
Qil tasavvur ko‘z yoshimni bir tengiz,
O‘zga oshiq ashki yanglig‘ bilmanam.

* * *

To ko‘ngul berdim o‘shal qoysorig‘a,
Borgonini bilmadim qoy sorig‘a.
Do‘stlar, yorg‘a meni sog‘indurung,
Solsangiz nogah quloq qoysorig‘a.

* * *

Jong‘a soldi daf g‘urbat norini,
Ko‘z yoshim bo‘ldi mo‘g‘ulning norini.
Bu aroda men degandek bo‘lmasa,
Ko‘zlay Issig‘ko‘l-u andin norini.

* * *

Qaddimni firoq mehnati yo qildi,
Ko‘nglum g‘am-u anduh o‘tig‘a yoqildi.
Holimni sabog‘a aytib erdim, ey gul,
Bilmon, sanga sharh qilmadi yo qildi?!

QIT’ALAR

Noumid bo‘ldum, ey Mo‘g‘ul, sendin,
To eshitgimki, Andijon bording.
Aytg‘on so‘zga keldim, ammo, sen
Yaxshi kelding demay, yamon bording.

* * *

Qolmadi hurmat ahli olamda,
Olam-u olam ahdidin yuv ilik!
Boburo, ikki podsholig‘din
Yaxshiroq bu zamonda bir beklik.


* * *

Muyassar o‘lsa agar yor vasli g‘urbatta,
Vatanni ne qilay-u o‘z diyor nega kerak?
Yibordi yor manga yodgor deb xatini,
Manga habib kerak, yodgor nega kerak?!

TILBILIM

BOBUR MIRZODA SO‘Z NISBATI

Keling, bir tajriba qilib ko‘raylik. Xo‘sh, o‘tgan mingyillik ichida tilimizda qanday o‘zgarishlar yuz berdi? Bu jarayonni turli asrlarda yashagan mumtoz adabiyotimizning yirik vakillari asarlari asosida o‘rganishga harakat qilamiz:



XI ASR:

YUSUF XOS HOJIB. “Qutadg‘u bilig” asaridan:

“Сэвуг савчы ыдты бағырсақ иди

Буdунда талусы кишидэ кэди”.

(Ma’nosi: Mehribon egam sevikli rasul yubordi,

(U) xalq orasida sarasi, kishilar orasida yaxshisi edi).

Mazkur baytda birortayam arabcha yoki forscha so‘z yo‘q. Shuning uchun foiz hisobida:

– turkiy so‘zlar – 100%.

Qariyb olti yarim ming baytni o‘z ichiga olgan “Qutadg‘u bilig”dagi aksariyat baytlar xuddi shunday, asarda o‘zlashgan so‘zlar nihoyatda kam, taxminan 5-10 foizni tashkil etadi, deyish mumkin.



XIV ASR:

SAYFI SAROYI. “Gulistoni bit-turkiy” asaridan:

“Bu so‘zdan bir necha kun kechti dag‘i sultong‘a bir og‘ir dushman cheriki keldi. Bular dag‘i cherik yasab, qarshi yuridilar. Ikki cherik muqobil bo‘ldi. Avval maydong‘a sultonning ul qisqa bo‘yli o‘g‘li kirdi...”

Sayfi Saroyi asaridan olingan ushbu ko‘chirmada hammasi bo‘lib 31 so‘z bor. Shulardan:

– 25 so‘z (bu, so‘z, bir, necha, kun, kechti, dag‘i (2 marta), bir, og‘ir, cherik (3 marta), keldi, bular, yasab, qarshi, yuridilar, ikki, bo‘ldi, ul, qisqa, bo‘yli, o‘g‘li, kirdi) – turkiy (80,5%);

– 4 so‘z (avval, sulton (2 marta), muqobil) – arabiy (13%);

– 2 so‘z (dushman, maydon) – forsiy (6,5%).

Foiz hisobida:

– turkiy – 80,5%;

– arabiy – 13%;

– forsiy – 6,5%.

Bu nisbatlarni butun asarga nisbatan ham qo‘llash mumkin.



XV ASR:

ALISHER NAVOIY. “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asaridan:

“Va bu faqirni faqr tariqig‘a dalolat va irshod qilurlar erdi va nazm ayturg‘a targ‘ib ko‘rguzurlar erdi. Chun ul avqotda faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutub erdi, alar dag‘i iltifot qilib, ba’zi abyotni ko‘p o‘qurlar erdi va majolisda xushvaqt bo‘lurlar erdi”.

Navoiy asaridan olingan ushbu parchada hammasi bo‘lib 39 so‘z ishlatilgan. Shulardan:

– 17 so‘z (bu, qilurlar, erdi (5 marta), ayturg‘a, ko‘rguzurlar, ul, tutub, alar, dag‘i, qilib, ko‘p, o‘qurlar, bo‘lurlar) – turkiy (43,5%);

– 19 so‘z (va (4 marta), faqir (2 marta), faqr, tariq, dalolat, irshod, nazm (2 marta), targ‘ib, avqot, shuhrat, iltifot, ba’zi, abyot, majolis) – arabiy (49%);

– 2 so‘z (chun, Xuroson) – forsiy (5%);

– 1 so‘z (xushvaqt) – forsiy+ arabiy (2,5%).

Foiz hisobida:


– turkiy – 43,5%;

– arabiy – 49%;

– forsiy – 5%;

– forsiy+arabiy – 2,5%.

Bu nisbatlarni butun asarga nisbatan ham qo‘llash mumkin.



XV ASR OXIRI – XVI ASR BOSHI:

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR. “Boburnoma” asaridan:

“Bizning cherik va mo‘g‘ul cheriki xabar topib, bir pora kishini ot yalang‘ochlanturub, suvdin kechurdilar, ko‘mak kelganlar oldarab kemani yuqqori tortmay kechgan yeridin-o‘q qo‘yaberdilar. Qo‘rg‘ong‘a o‘ta olmay quyi tushtilar. Bizning cherik va mo‘g‘ul cheriki tush-tushdin ot yalang‘ochlab kira boshladilar. Kemadagilar hech urusha olmadilar”.

“Boburnoma”dan olingan ushbu parchada 42 so‘z ishlatilgan. Shulardan:

– 37 so‘z (bizning (2 marta), cherik (4 marta), mo‘g‘ul (2 marta), topib, bir, kishi, ot (2 marta), yalang‘ochlanturub, suv, kechurdilar, ko‘mak, kelganlar, oldarab, kema (2 marta), yuqqori, tortmay, kechgan, yeridin-o‘q, qo‘yaberdilar, qo‘rg‘on, o‘ta, olmay, quyi, tushtilar, tush-tushdin, yalang‘ochlab, kira, boshladilar, urusha, olmadilar) – turkiy (88%);

– 3 so‘z (va (2 marta), xabar) – arabiy (7%);

– 2 so‘z (pora, hech) – forsiy (5%);

Foiz hisobida:

– turkiy – 88%;

– arabiy – 7%;

– forsiy – 5%.

Bu nisbatlarni butun asarga nisbatan ham qo‘llash mumkin.



XIX ASR:

MUHAMMADRIZO OGAHIY (1809–1894). “Jomeal-voqeoti sultoniy” asaridan:

“Va tonglasi dushanba kuni tali’ai subhdin so‘ng ul hazrat ba’zi sarkardalarning xizmat va g‘ayrat umurida bag‘oyat kohil va noqobil erdilar, tug‘larin olib, umaroyi ezom va sipahdori kiromdin ba’zi sadoqatandesh va shijoatkesh mulozimlarg‘a in’om qildilar”.

Ogahiy asaridan keltirilgan ushbu jumlada 34 so‘z ishlatilgan. Shulardan:

– 8 so‘z (tonglasi, kuni, so‘ng, ul, erdilar, tug‘larin, olib, qildilar) – turkiy (23,5%);

– 19 so‘z (va (5 marta), tali’ai, subh, hazrat, ba’zi (2 marta), xizmat, g‘ayrat, umur, kohil, umaro, ezom, kirom, mulozim, in’om) – arabiy (56%);

– 3 so‘z (dushanba, sarkarda, sipahdor) – forsiy (9%);

– 4 so‘z (bag‘oyat, noqobil, sadoqatandesh, shijoatkesh) – arabiy+forsiy (11,5%).

Foiz hisobida:

– turkiy – 23,5%;

– arabiy – 56%;

– forsiy – 9%;

– arabiy+forsiy – 11,5%.

Bu nisbatlarni butun asarga nisbatan ham qo‘llash mumkin.

Misollardan ko‘rinadiki, deylik, ming yil oldin yashagan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida arabiy, forsiy so‘zlar taxminan 5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Navoiyda bu ko‘rsatkich 56,5 foiz (turkiy so‘zlar – 43,5%), Ogahiydan keltirilgan parchada esa o‘zlashgan arabiy-forsiy so‘zlar – 86,5 foizni (turkiy so‘zlar – 23,5%) tashkil etyapti. Ogahiyda forscha so‘zlar ham ko‘p emas (9%); bundan ko‘rinadiki, so‘nggi asrlarda tilimizda asosan arabiy so‘zlar (arabiy – 56%; arabiy+forsiy – 11,5%) ko‘paygan. Ogahiy o‘z asarida taxminan 23-25% turkiy so‘zlardan foydalangan ekan.

Misollardan ham ayonki, yozma adabiyotimizda yildan-yilga, asrdan-asrga o‘tgan sari sof turkiy so‘zlar kamayib, arabiy so‘zlar miqdori oshib borgan. Buning oqibatida, albatta, juda ko‘p turkiy so‘zlar arxaiklashgan, ko‘p hollarda arabiy-forsiy so‘zlar ularni iste’moldan siqib chiqargan. Yaxshiyamki, ko‘pgina so‘zlarimiz oddiy xalq so‘zlashuv tilida, shevalarda, xalq kitoblarida saqlanib qolgan.

Tilga e’tibor borasida Bobur ijodi tahsinga sazovor. Yuqorida keltirilgan misolimizda Bobur 88 foiz turkiy so‘zlardan foydalangan, uning lug‘atida (yuqoridagi misolda) arabiy so‘zlar – 7 foiz (bor-yo‘g‘i 3 so‘z) va forsiy so‘zlar ham 5 foizni (atigi 2 so‘z) tashkil etgan. Meningcha, “Boburnoma” tilining jozibadorligi, samimiyati, sehri ham shunda bo‘lsa kerak.

Abduvohid HAYIT

BU KITOBNI O‘QIDINGIZMI?

ODAMZODNI INSONIYLIK MAQOMIGA QAYTARISH ZARUR

Agar badiiy asar dastlabki sahifalaridanoq o‘quvchini o‘ziga butunlay rom etib, uni noma’lum bir olamga olib kirsa, o‘tli hissiyot va iztiroblar otashida yondirsa, tasavvurlarini ostin-ustun qilib, qalbida yangi tuyg‘u va fikrlar uyg‘otib, uzoq vaqt xayolini band etsa, u chindan ham zo‘r kitob deyishga munosibdir.

Atoqli qirg‘iz adibi Sulton Rayevning 2015-yili Londonda rus tilida nashr etilgan “Kara” (“Jazo”) romani aynan ana shunday xususiyatlari bilan e’tiborni tortadi. Mazkur asar bir qancha xalqaro yozuvchilar tashkilotlari, jumladan, Markaziy Osiyo “PEN-klub”ining e’tirofiga ko‘ra, “Yilning eng yaxshi romani” xalqaro mukofotiga sazovor bo‘lgan, dunyoning turli tillariga tarjima qilinib, bir qator mamlakatlarda bosilib chiqqan.

Sulton Rayev – Qirg‘iz Respublikasi xalq yozuvchisi, xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi – nafaqat o‘z yurtida, balki xorijiy davlatlarda ham keng tanilgan yorqin iste’dod sohibidir. U 2022-yildan buyon Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOYning rahbari bo‘lib, bepoyon turkiy makonda madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish harakatiga yetakchilik qilib kelmoqda.

Bugungi kunda biz adabiy aloqalarimiz rivojlanib borayotgani tufayli o‘z dunyoqarashimiz chegaralarini kengaytirgan holda, qardosh xalqlarning eng sara badiiy asarlari bilan tanishish va jahon miqyosidagi madaniy-estetik jarayonlarda ishtirok etish imkoniga ega bo‘lmoqdamiz.

Sulton Rayev – sermahsul adib, uning qalamiga mansub asarlar ko‘p. Muallifning hikoya va qissalari, o‘z yurti va chet el teatrlarida namoyish etilgan spektakllari doimo katta qiziqish va e’tibor bilan kutib olinadi. Lekin uning eng muhim, asosiy asari – bu “Jazo” romanidir. Ushbu muhtasham asar yozuvchining yigirma yillik mashaqqatli ijodiy mehnati samarasidir.

“Jazo” mistik va falsafiy roman janrida yozilgan. Murakkab uslubiga qaramasdan, asardagi voqea-hodisalar va qahramonlarning ichki kechinmalari favqulodda dadillik bilan teran tasvirlangani o‘quvchining diqqat-e’tiborini o‘ziga bamisoli ohanrabodek tortib oladi.

Roman syujetiga ruhiy kasalliklar shifoxonasidan qochib chiqqan yetti nafar bemorning boshidan kechirgan voqealeri asos qilib olingan. Ular Muqaddas makonni topish va pirovard oqibatda gunohlardan forig‘ bo‘lish uchun yo‘lga otlanganlar. Muallif bu insonlarning alam va iztiroblarga, azob va yo‘qotishlarga to‘la hayot yo‘lini tasvirlaydi, qahramonlarning murakkab, ziddiyatli xarakteri va achchiq qismatini ochib beradi. Bemorlarning ba’zilari Muqaddas makon ularning qalbi va ongi, o‘y-xayollari poklangan joyda ekanini anglab yetadilar, boshqalari esa aql-u hushidan butunlay judo bo‘lib, haqiqat ne ekanini oxirigacha idrok etolmaydilar.


Asar qahramonlari tabiatan g‘oyat xilma-xil, ammo ularning barchasini Muqaddas makonga eltadigan yo‘l va ilon chaqishidan o‘lim topish haqidagi mudhish bashorat birlashtiradi.

Muallif hayotni beshafqat haqqoniyat bilan real tasvirlab, o‘z qahramonlari qanday og‘ir gunohlarga qo‘l urib, tubanlashib borishlarini ochiq ko‘rsatadi, ayni paytda ularga nisbatan qalbimizda achinish hissini ham uyg‘otadi. Adib ruhning abadiyligi, ilohiy jazo, qiyomat kuni bo‘ladigan savol-javob muqarrar ekani, inson mohiyatida mujassam bo‘lgan Rahmon va Shayton bilan bog‘liq his-siyotlar, farishtalar va buzg‘unchi kuchlar haqida teran falsafiy mushohada yuritadi.

U ruhiy kasalliklar shifoxonasidan qochib chiqqan bemorlarni yorqin xarakter egalari sifatida aks ettirib, ularga Imperator, Tais Afinskaya, Kleopatra, Lir, Chingizxon, Buyuk Aleksandr kabi nomlar beradi. Shu tariqa roman qahramonlari va ular uchun asos bo‘lgan tarixiy siymolarning gunoh-kirdikorlarini o‘zaro qiyoslagandek bo‘ladi. Tarixiy voqealarning aniq tasviri mistikani real hodisalarga aylantiradi.

Adib Muqaddas makon yo‘lidagi murakkab sinovlar orqali qahramonlarga muhim ishoralar berayotgandek tuyuladi. Lekin ularni hamma ham anglab yetolmaydi. Faqat “Xudo sizlar uchun do‘zaxni yaratgani yo‘q, balki sizlarning o‘zingiz uni yaratdingiz”, “Sizlar o‘zingizning inson ekaningizni unutib qo‘ydingiz”, “Inson Haqni bilgan, tanigan hamma joy Muqaddas makondir”, “Jonning so‘rovi – abadiydir” kabi hayotiy hikmatlarni anglab yetganlargina najot topgusidir.

Asarni mutolaa qilar ekanmiz, muallif ijod osmonida mutlaq erkin parvoz qilgani, biz ko‘nikkan badiiy qolip va shartli mezonlar, bid’at va xurofatlar, riyokorlik muhitiga nafrat bilan boqib, ularni rad etgani, ruhiy yuksaklikdan turib, nozik, inja insoniy his-tuyg‘ularni tasvirlashda odatiy cheklov va chegaralardan g‘oyat uzoqlashib borganini his etamiz. Qahramonlar bilan birgalikda biz



ham zamon va makon kengliklarida, ong-u shuur qatlamlarida harakat qilamiz. Shu asnoda inson qalbi naqadar go‘zal va sof bo‘lishi mumkinligiga, dunyoni aslida mehr va ezgulik boshqarishi lozimligiga ishonch hosil qilamiz.

Sulton Rayev ommaviy axborot vositalariga bergan intervyularidan birida “Jazo” romani uning dunyoga bo‘lgan munosabatining badiiy in’ikosi ekanini ta’kidlagan edi. “Qiyomat kuni – bu axloq tarozisidagi so‘nggi o‘lchovdir. Ortga qaytishning imkoni boy berilgan, undan keyin faqat tubsiz bo‘shliq boshlanadigan hayot-mamot chegarasi... Mening romanim ana shu ma’naviy halokat nuqtasi haqida”, deb ta’kidlaydi adib.

Muallif, go‘yoki ulug‘ ustozi Chingiz Aytmatovning “Odamzotni insoniylik maqomiga qaytarish – bugungi kunning eng muhim, hal qiluvchi vazifasidir”, degan teran ma’noli fikrini go‘yo yangicha talqinda davom ettirayotgandek tuyuladi.

Bundan roppa-rosa bir yil muqaddam taniqli adib va dramaturg, xalqaro miqyosdagi jamoat va madaniyat arbobi Sulton Rayev O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining faxriy a’zoligiga qabul qilingan edi. Binobarin, o‘z badiiy olami bilan xalqimizga juda yaqin va tushunarli bo‘lgan bu ulkan adib bizning ham yozuvchimizdir, deb aytishga va unga yangi-yangi ijodiy yutuqlar tilashga haqlimiz.

Feruza KUBAREVA

TAKLIF

LUG‘ATLAR – TIL XAZINABONI

“Devon-u lug‘otit turk”, mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining, xususan, “Navoiy asarlari lug‘ati” (1972), “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati” (to‘rt jildli, 1983-1985) bilan zamonaviy lug‘atlar orasida “xronologik” chegara o‘rnatish joizmikan? Mumtoz adabiyotimizda qo‘llanilgan so‘z va so‘z birikmalaridan tuzilgan maxsus lug‘atlar ham, albatta, kerak. Ammo baynalminal so‘zlar ko‘proq o‘rin olgan izohli lug‘atni eski va yangiga ajratmagan holda Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa mumtoz adabiyotimiz vakillarining asarlarida ishlatilgan barcha turkiy, shuningdek, o‘zbek tiliga singib ketgan arabcha, forscha so‘zlarning aksariyatini umumiy o‘zbek tili izohli lug‘atiga kiritish har tomonlama foydali bo‘lardi.

Alisher Navoiy asarlari lug‘atidagi asru (juda ko‘p, g‘oyat), tegru (...gacha, qadar), o‘tru (qarshi, muqobil, ro‘para), aldaramoq (sarosima bo‘lmoq, dovdiramoq, shoshib qolish) va yana ko‘plab turkiy so‘zlarning ham ikki va besh jildli izohli lug‘atlarga kiritilmagani e’tirozga arzigulik hodisadir. Abdulla Oripov “Ilohiy komediya”ning “do‘zax” qismini tarjima qilish jarayonida XV-XX asrlardagi tilimiz boyligidan foydalangani bejiz emas.

“Ma’naviy masnaviy”ning oltinchi kitobini tarjima qilish jarayonida bir hikoyatdagi “xabar tashuvchilarning almashib miniladigan oti” ma’nosini ifodalaydigan so‘zni lug‘atlarimizdan izlab topolmadim. Qizig‘i shundaki, “Masnaviy”ning avvalgi tarjimoni, “osonroq” yo‘lni tanlagan shekilli, asliyatdagi o‘sha so‘zni tarjima matnidan tushirib qo‘yaqolgan... Shoir, olim, tarjimon do‘stimiz Alisher Sabriy yordamida “Devoni lug‘otit turk”da yuqoridagi ma’noni anglatuvchi “ulag‘” so‘zi borligidan xabar topdim...

Uzoqqa bormaylik, o‘zimizdagi va Turkiyadagi lug‘at tuzish jarayonini qiyoslaydigan bo‘lsak, haligacha biz anglab yetmagan haqiqatlarga duch kelamiz. Turkiyada tahsil ko‘rayotgan hamyurtimiz, shoir va tarjimon Mirzohid Muzaffarning fikriga ko‘ra, 1930-yillarda Otaturk reformalaridan so‘ng turkchadan arabcha va forscha so‘zlar olib tashlanadi hamda ularning o‘rnini to‘ldirish uchun iste’molda bo‘lmagan hamda shunchaki to‘qilgan bir talay so‘zlar uydiriladi. Bu sun’iy so‘zlar o‘sha yillarda rasmiy lug‘atlarga kiritilgach, iste’molda singishib ketadi. Biroq Otaturk sekulyarizmiga (din yoki diniy aqidalarga nisbatan mo‘tadil munosabatda bo‘lish) qarshi musulmon qatlam arabcha so‘zlardan foydalanaveradi. O‘sha davrlarda ishlatayotgan so‘zi orqali kishining qanday siyosiy qarashga mansubligi aniqlangan. Lug‘atlarni ikkita mustaqil tashkilot – Madaniyat vazirligi va Turk Til Qo‘mitasi yaratgan. Qo‘mita lug‘at yaratish asnosida davlatning eng katta targ‘ibot-tashviqot mashinalaridan biri bo‘lib kelgan. Shuning uchun hukumatga siyosiy islomchi Erdo‘g‘an kelgach, Qo‘mitada ham arabcha va forschani yoqlaydigan dindor tilshunoslar faoliyat yuritgan. Aslida, avvalgi sekulyar lug‘atnavislarning qarashlarini ham butunlay oqlab bo‘lmaydi. Chunki ular turkchada hamma so‘z turkcha bo‘lishi kerak, degan maqsadda “avtobus” o‘rniga xalq mutlaqo tushunmaydigan oturgaçlı götürgerç (o‘tirg‘ichli oborg‘ich) kabi bema’ni so‘zlarni tiqishtirishgan. Shunga qaramay, “kompyuter” o‘rniga “bilgisayar” (ma’lumot sanovchi), “samolyot” o‘rniga “uchoq” kabi so‘zlari xalq tiliga juda yaxshi o‘rnashgan.

Bu davrda asosan ikki raqib taraf bo‘lgan: Anqara va Istanbul tilshunoslari. Anqaradagilar otaturkchi bo‘lib, lug‘at qadimgi turkiy til, Qoshg‘ariyga asoslanishi kerak, desa, Istanbuldagilar: yo‘q, biz olti yuz yil saroy tili sifatida arabcha va forscha ishlatdik, ularning ham o‘z o‘rni bo‘lsin, deydi. Anchagacha Anqara maktabi lug‘at sohasini monopoliyaga aylantiradi. Mehmet Fuod Ko‘prulizoda, Partav Noili Boratov kabi folklorshunos turkologlar ham Anqara maktabi tarafida edi.

Turkiyada asosan ikki minginchi yillarda klassik adabiyotga urg‘u berilib, Erdo‘g‘anning diniy hukumatidan so‘ng Istanbul maktabining qo‘li baland kela boshlagan. Aynan Istanbul maktabi asosida turkcha va turk mumtoz adabiyotidagi arabcha hamda forscha suzlar lug‘ati, Kubbealtı Lügat shakllantirildi.

Turk tili izohli lug‘atining birmuncha mukammalligiga sabab, bizningcha, mafkuraviy mo‘tadillik bo‘lsa kerak. Albatta, u yerda ham g‘oyaviy to‘qnashuvlar yo‘q emas. Ammo ularning eng katta omadi – mustamlaka bo‘lmaganida, ya’ni, hamma narsani o‘zlari belgilashgan, hech kim chetdan kelib aralasholmagan. Bundan tashqari, lug‘at labaratoriyalarida katta yozuvchilar ham ishlagan, yozuvchi so‘z yaratib uni ishlatadi, lug‘at esa tilshunosning ishi, degan alohida qoida bo‘lmagan.

Lug‘at tuzishda biz shevalardan deyarli voz kechganmiz, turklar esa lug‘atshunoslikka yetarli miqdorda mablag‘ ajratilgani uchun chekka viloyatlarga so‘z teruvchi ekspeditsiyalar jo‘natishgan. Natijada o‘sha chekka viloyatlarga xos sheva so‘zlari ham umumiy lug‘atga kiritilgan. Bizda til va lug‘atga oid masalalar bilan faqat tilshunoslar shug‘ullanadi. Turkiyada esa, sotsiolog, tarixchi, antropolog kabilar ham bu ishga safarbar qilinadi. Bilishimcha, tilshunoslikni bitirgan har bir talaba diplom olish uchun kamida o‘nta yangi so‘z yaratib, lug‘atga hissa qo‘shishi kerak ekan. Bizda esa bu ish o‘ta xususiylashtiriladi. Hatto Navoiy asarlari lug‘atini internetga o‘rnatish uchun ham Fanlar akademiyasidan ruxsat olish va yana allaqanday dahmazalar borligi g‘oyat achinarlidir.

Xullas, XI asrdan hozirga qadar yaratilgan asarlardagi barcha turkiy, shuningdek, tilimizga singib ketgan forsiy, arabiy hamda sheva so‘zlarining katta bir qismini kiritgan holda o‘zbek tilining yagona, umumiy lug‘atini yaratsak; so‘z boyligini oshirishda belgilangan ma’lum bir had-hududlardan voz kecha olsak, – jahon adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga o‘girishda ular bilan “bellasha oladigan” til boyligimiz yanada ravnaq topgan bo‘lardi.

Odil IKROM

MULOHAZA

SIZ NEGA KULYAPSIZ?

Ma’lumotlarga ko‘ra, kulgi aksariyat kasalliklarni davolashda muolaja vazifasini o‘tarkan. Chunonchi, “kulgiterapiya” degan istilohning qo‘llanishi bejiz emas. “Bemor kulayotgan lahzalarida yuz foiz sog‘lom odam holatida bo‘ladi”, degan ekan Ibn Sino. Bu hikmatning haqligiga men o‘z hayotimda guvoh bo‘ldim. Jarrohlik amaliyoti o‘tkazganimdan keyingi og‘riqlarni kulgi tufayli unutib, uyqusizlikdan xalos bo‘lgan edim. Aynan o‘sha paytlarda har oqshom ma’lum muddat hajviya ustalarining dasturlarini tomosha qilganman va bu uyqusizlikdan qutulishning amaliy chorasi bo‘ldi.

Kulgi tana va tafakkurni sog‘lomlashtiruvchi vosita sanaladi. Kulganda kishining ongi yorishadi, dard va iztiroblarning zahri chiqadi hamda fasohat bilan aytilgan yumor idrokni o‘tkirlaydi. Qadimda shohlar o‘z aybini, kamchiligini bilib olish uchun masxarabozlarga quloq tutgan ekan. Chunki hamma maqtab turgan bir paytda faqat masxarabozlargina askiya orqali ularga kamchiligini ko‘rsata olgan. Ular so‘z qo‘llashdagi chapdastligi bilan hukmdorlar yuziga ko‘zgu tutgan. Shuning uchun ham ko‘pincha masxarabozlar shohlarning erkatoyiga aylangan. Jaloliddin Rumiyning “Ma’naviy masnaviy” asarida ham shohning huzuriga haddi sig‘ib istagan paytida kirib boradigan Dalhaq ismli masxaraboz haqida hikoya qilinadi.

Yuqorida aytilganiday, kasal paytimda internetni titkilab, kulgili dasturlarni tomosha qilganimda ular atigi bir haftaga yetdi, xolos. Avaz Oxunning va qisman “Qahqaha”, “Qalpoq” guruhlarining dasturlaridan qoniqish hosil qilish mumkin. Umumjahon madaniyati va san’atiga Xo‘ja Nasriddin afandi kabi zukko, topqir, halollik va rostlikning yorqin timsoli bo‘lgan abadiy qahramonni tuhfa etgan millatning kulgisi ham, yig‘isi ham samimiy, tabiiy bo‘lishi kerak. Yusufjon qiziq Shakarjonov, Hojiboy Tojiboyev, Muhiddin Darveshov kabi so‘z ustalarining, Abdulla Qodiriy (Julqunboy), G‘afur G‘ulom, Said Ahmad, Ne’mat Aminov, Ilhom Zoyir kabi adiblarning sermazmun hajviy asarlari xalq qalbidan chuqur joy olgani tayin.

Kulgi shunchaki ko‘ngilochar vosita emas, balki pand, tanqid va kezi kelganda tanbeh hamdir. Qolaversa, muammolarga xalq e’tiborini qaratishning, shu orqali odamlarni ma’naviy va madaniy kamolotga undashning favqulodda tezkor usuli. Jiddiy gapning ta’siri kamayganda yoki yo‘qolganda kulgi yordamga keladi. Jamiyat va inson hayotidagi kamchiliklar hajv orqali yuzaga olib chiqiladi. Tabiiyki, bundan ijobiy yechim kutiladi.

Qiziqchi, umr bo‘yi yeb-ichishidan qisinib, yig‘ganlarini bolasini o‘qitishga emas, hunarli qilishga emas, bir kunlik to‘yiga sarflayotgan, oq yuvib, oq tarab katta qilgan qizini birovning xizmatiga berib qo‘yib, xuddi aybi borday uning uyiga hali mebel, hali ko‘rpa-to‘shak, hali tog‘ora-tog‘ora ovqat tashiyotgan ota-onalarning yuziga Afandiga xos uslubda ko‘zgu tutadi. To‘g‘ri, hajvchi o‘zi ko‘targan muammoga amaliy yechim topib berolmas, ammo odamlar e’tiborini shu muammoga qaratadi, kishi bilmas dakki berib, tomoshabinni ham kulib, ham yig‘lashga majbur qiladi. Turk yigitining hayrati va e’tirozi esa vaziyatning nechog‘li jiddiyligini yaqqol ko‘rsatmoqda.

Afsuski, mazmunli kulgi bilan xalq va jamiyatni ma’naviy qusurlardan xalos etadigan zukko qiziqchilarimiz juda kam! Ehtimol, ayrim yaxshi qiziqchilarning borligidan bexabardirman, biroq bu ham hozirgi kulgi san’atiga qoniqarli yondoshishga izn bermaydi va berolmaydi. Jo‘yali kulgi izlab, yuqorida e’tirof etilganlardan tashqari, ayrim qiziqchilar ijrosida kuzatganlarimiz bachkana kulgilarga ham guvoh bo‘lyapmiz.

Erkak yoki ayolning xiyonatini, fahshni, buzuqlikni targ‘ib etuvchi, intim mavzu asosiy obyektiga aylangan “yalang‘och” latifalar, hatto dasturlar shu qadar ko‘p ekanki, odamni yolg‘izlikda ham o‘zidan hayo qilishga majbur etadi. Bunday bachkana kulgilar yengil-yelpi hayotni, fahshni, nashavandlik, ichkilikbozlik, tabaqalashtirish, mahalliychilik kabi illatlarni yoshlar ongiga singdiruvchi xavfli qurolga aylanmasligi kerak.

Shu o‘rinda qiziqchilarga shunday savol berish joiz ko‘rinadi: “Xo‘sh, siz shu latifalaringizni o‘z bolalaringizga, otangizga, onangizga aytib bera olasizmi?” Ayollarning fohishaligi, erkaklarning buzuqligini kalaka qilish, bu illatlardan yengil-yelpi kulgi yasab odamlarni kuldirish, bu mohiyatan axloqni, ma’naviyatni mensimaslik emasmi?! Shuning barobarida, behayo latifalarga qiyqirib kulayotgan, didi o‘tmaslashib qolgan tomoshabinga murojaat qilging keladi: “Xo‘sh, siz nimadan kulyapsiz? Shunchaki kulish uchun kulyapsizmi yoki bu kulgingiz ustingizdan kulishning bir usulimi?”

Qadriyatlarni tahqirlovchi bachkana latifalarga sog‘lom munosabatni o‘zida tarbiyalash kishidan ko‘p narsa talab qilmaydi. Buning uchun ko‘proq kitob o‘qish, madaniy saviyani, didni tarbiyalash lozim bo‘ladi. Shunda bema’ni kulgilar ustidan kula bilamiz. Zotan, ma’naviy dunyosi boy insonlarning jiddiy gapida ham, hajviyasida ham bir muhim jihat – aql va zakovat ustunlik qiladi.

Oydin YO‘LDOSHEVA



TILBUZAR

GAPNING TO‘NI

yoxud qarg‘a bilan cho‘qishganlar

Gapning ham to‘ni bo‘ladimi deysanmi, Landavur? To‘ni bo‘lmasa, eshitsang-chi! To‘xta, nervimga o‘ynamay tur, aytay! Mana, nimaymish, “Nima uchun ko‘cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi?” emish. Ja-a anoyini topibsanlar-a jarimaxo‘rlar! Bu gapni kim aytgan o‘zi, qachon aytgan o‘zi? Qaysi zamonda aytgan? Hozir qaysi zamonda yashayapsan? O‘zimizning Qo‘qon tomonlarda yangilik qilaman deb Yaypanning fayzini ketkazgan Qahhor temirchini behuda mahalladan badarg‘a qilishmagan shekilli, yo‘qsa uning o‘g‘li Abdulla sho‘ro zamonida yozuvchi-navisanda bo‘lib shunaqa gaplarni aytarmidi? O‘zi sho‘ro zamonida jarima kammidi? Hay, o‘tgan ishga salovat! Qahhor temirchining yozuvchi o‘g‘li Abdulla bu gapni aytgan shom chog‘ida tug‘ilgan bola oltmishdan oshib, yetmishni ko‘zlab, u yoq-bu yog‘ini yig‘ishtirib, oxiratini o‘ylayotgan bo‘lsa-yu, yana shu gap xuddiki bugun aytilgandek qo‘zg‘alib tursa? Bu qanday bedodlik? Nima deysan Landavur, Abdulla Qahhorga avliyolik nuqsi urib, ilmi ladundan xabar topganmikan? Yo‘q deydigan bo‘lsang, mundoq ko‘cha-ko‘yda el oyog‘i tinib, govgumdan tonggacha telvizo‘r ko‘radiganlardan so‘ra! Ularga ham ishonmasang, subhi sodiqdan qora kechgacha telvizo‘r bilan guftigo‘lashib, umrini behuda o‘tkazayotgan latta-bayovlardan so‘ra! Hay attang, Toshpo‘lod akaday avboshlar qolmadi! Ular aytishardi! Bu latta-bayovlardan ko‘ra o‘zim tuzuk. O‘zim aytsam, tunov kun Gulxaniy bobo “Zarbulmasal”ida kiftini kelishtirg‘on boshdin oyoq, oyoqdin bosh chiqar kezda xotun bilan navvot choyni o‘rtaga qo‘yib, ag‘dan-bag‘dan shirin suhbat qurib tursak, xotun tomdan tarasha tushgandek ko‘rib turganimiz “Milliy” telekanalining reklomasidagi gapni takrorlab: “Dadasi, Anzibal, tamoq og‘riganda, muhabbat bilan”, deydi xolos. Ob-bo, jin-pin chalmadimikan, bundoq og‘ziga qarasam, “muhabbat bilan” deganida tomog‘i taqillab ketyapti. Birdan achchig‘im chiqib, “Ho-oy nodon, o‘zingga o‘xshagan bu ahmoqlar doruni aytopti, doruni!” deb yuborsam, “Hay, man nimani aytdim?” deb, shart chiqib ketsa bo‘ladimi? Navvot choy ham qoldi. Xotunsiz tatirmidi?

Ey, bor-e deb telegromga kirsam, o‘lganning ustiga tepganday, “it halok bo‘ldi”, “hayotdan ko‘z yumdi” deb turibdi. It ham hayotdan ko‘z yumarkan, ularning nazdida inson maqomiga yaqinlashib qolibdi-da? Ob-havodan behrog‘i qolmadi, deb yana televizo‘r qarshisiga cho‘kkalayman. Havo haroratini emas, latifa aytyapman, deb o‘ylashadi chog‘i. Nima emishki, “havo sovuq darajaga tushishi mumkin” ekan! Qahratonda havo isirmidiki, darajasini aytmaysan, junbosh! Og‘ziga kelganini vaysaydiganlarni alqab tursam deng, “Akula tog‘ayi, kiyik shoxi”, deb alahsirash boshlandi... Yana emishki, chanqoqning ovozi chiqadig‘on bo‘libdi “chanqog‘ing yangroq bo‘lsin”ni eshitib, “astag‘furilloh” deb, yoqamg‘a tuflab qolsam.

Abdulla Qahhor tirik bo‘lganda ularning ta’zirini berishga kuchi yetarmidi yo asabi chidolmay o‘zini bir nima qilib qo‘yarmidi? Nima deysan, Landavur? Bir nima qilib qo‘yardi deysanmi? Ammo uyam temirdek qattiq, jim yurmay, bariga jarima soldirardi. Reklomdan topganini jarimaga berib, keyin tinchirdi! Soqqa kemasa ular ham bir balo bo‘larmidi, deysanmi? Emdi bunaqa tilini qarg‘a cho‘qigan telvizo‘rchilar o‘zlarini bir nima qilib qo‘yishsa man vinovat bo‘lmaymanmi? Nima deysan? “Anzibal”-ku, muhabbat bilan bir doru ekan, endi nima bo‘lsayam navvot choyning obro‘si ketmasin, xotunniborib ovutay deb tursam, qulog‘imga yana shu kanalning “Pinoloks” degan dorusiga “Qattiq muammoning yumshoq yechimi” degani olinib qolsami? Hay, kuchala yegan joyingga borib kuchanmaysanmi, bir ichketar dorusi ortidan pul topaman deb ona tilimizni, jonajon tilimizni buzib yotgan ochofatlar! Emdi bundaychangi narsalardan nainki “Milliy”ning milliyligini pardozlayotganlar, “Sevimli”ning suyuklisini qidirayotganlar-u “Zo‘r”ning zo‘rligini ko‘rsatmoqchi bo‘layotganlar ham ulgu olib yotishganini aytmasa ham bo‘ladi! O‘zimizning davlat kanallaridan qo‘ymasin! E, bu yog‘iga nima bo‘ldi? “Teringizga g‘amxo‘rlik qiladigan sovun “Oliviya”” degani nimasi ekan? Sovun g‘amxo‘rlikka o‘tsa, bizning payshanbaligimiz nima bo‘ladi? Ha-ay, attang! “Parda osish mening yelkalarimga emas ekan?” Sizning yelkalaringizga nima bo‘lmasa? Sizning yelkalaringizga nimaligini bilmay turib, parda osish sizning yelkalaringizga emas ekanligini qayoqdan fol ko‘ray?

E, attang! “Mavzuni boshqa yoqqa bur, Ovsar”, deysanmi Landavur? Emdi man sanga aytsam tunov kuni “Jadid”ni varoqlab tursam...

OVSAR

ILLAT

DORI KIMGA DARMON

yoxud kasalliklar zanjiri

Dori-darmon hayotimizda muhim o‘rin tutadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yilda ta’lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yurtboshimiz tomonidan yig‘ilishda sog‘liqni saqlash tizimidagi, farmasevtikadagi og‘riqli masalalar, xalqni qiynayotgan muammolar ko‘rsatib o‘tildi.

Xorijiy mamlakatlarga yo‘li tushgan yurtdoshimiz u yerlarda dorixonalarning nihoyatda kamligi va biror dorining shifokor ko‘rsatma qog‘ozi(resepti)siz sotilmasligidan hayratga tushishi mumkin. Qizig‘i, chet elliklar uchun ham yurtimizda har qadamda “qo‘ziqorinday bolalab ketgan”, hatto butun ko‘chani egallagan qator dorixonalar ham shunday ajablanarli hol. Hatto Toshkent ko‘chalarida sayr qilayotgan bir sayyohning: “Dorixona” nima, deb savol bergani, javobni eshitgach, “O‘zbekistonda hamma kasalmi?” deb lol qolgani salkam latifaga aylanib ulgurgan. Biroq aslida bu kulgili savol emas, uning ortida achchiq haqiqat yashirin.

Arxivda saqlanayotgan tarixiy hujjatlarda yurtimizda ilk dorixona 1874-yilda ochilgani qayd etilgan. 1910-yilga kelibgina, dorixonaning dastlabki filiali faoliyat yurita boshlagan. Ma’lumotlarga qaraganda, bugun o‘rtacha 2400 nafar aholiga bitta dorixona to‘g‘ri kelar ekan. 2023-yilda respublika miqyosida o‘n besh mingdan ortiq dorixona faoliyat yuritgan. Yil sayin ularning soni ko‘payib bormoqda.

O‘zbekistonga dam olish uchun kelgan bir farmasevtning fikrlari e’lon qilingan edi. Uning aytishicha, yurtimizda dorixonalar market va restoranlardan ham ko‘p ekan. Farmatsevt dorixona xodimlarining bilim darajasi pastligi, ularning yozilgan preparat o‘rniga o‘xshashlarini tavsiya etishi, ayniqsa, bemorga zarur bo‘lmagan BADlarni taklif qilishidan hayratga tushib, aksariyat dorilarning sifati shubhali ekanligi, har qanday dori vositasini shifokorning ko‘rsatma qog‘ozi(resept)siz sotish noto‘g‘ri ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, mamlakatimizdagi dorixonalar tizimi kasallar va kambag‘allarning ko‘payishiga olib keladi, chunki xalq daromadining katta qismini ovqatlanish, dam olish, ko‘ngilochar joylarga borishga emas, balki dori-darmon sotib olishga sarflaydi.

Bu ayni haqiqat. Bugungi kunda kim ko‘p dori vositalariga pul sarflasa, qimmat brendlarning vitamin va minerallari, BADlarini iste’mol qilsa shuncha sog‘lom, yosh va chiroyli ko‘rinishga ega bo‘ladi degan sun’iy haqiqatlar odamlar ongiga o‘rnashib ulgurgan. Ko‘pchilikning nazarida dorilar inson salomatligi uchun oziq-ovqatlardan, maroqli hordiqdan ham foydaliroq. Shu boisdan ular dorilarga pul sarflashni afzal ko‘radi. Ammo aslida-chi? Agar dorilar shu darajada sehrli kuchga ega bo‘lsa, nega yildan yilga bemorlarning soni, kasalliklarning turi ortib bormoqda? Xastaxonalarga, yanada ko‘proq dori-darmonga muhtoj bo‘lyapmiz?

Hozirda aholining katta qismi shifokor ko‘rigidan o‘tmaydi ham. Dorixonaga kirib o‘zini bezovta qilayotgan dardlarini aytadi va dorixona xodimlarining tavsiyasiga binoan dori oladi. Dori to‘g‘ri berilgan taqdirda ham ularning dozasi, ichish vaqti noto‘g‘riligi uchun foyda o‘rniga zarar yetkazadi, hech bo‘lmaganda oshqozonda muammo paydo bo‘ladi. Qarabsizki, bemor dard ustiga chipqon deganiday, o‘z puliga yangi kasallikni “sotib oladi”. Aksariyat kasalliklarning 25 foizi dori-darmonlarni noto‘g‘ri iste’mol qilishdan yuzaga kelishi isbotlangan. Bundan tashqari, yozilgan dorini xato o‘qib, o‘rniga boshqasini berish yoki “bir xil” deb berilgan dorilarning tarkibi mutlaqo o‘xshamasligi hayotimizda tez-tez sodir bo‘lib turadigan, biz doim ham payqamaydigan odatiy hodisaga aylanib ulgurgan.

Albatta, bunday vaziyatlarda doim ham dorixona xodimlari aybdor emas. Bu zanjirda shifokorlarning ham hissasi salmoqli. Aksariyat kishilar shifokorlarning juda ko‘p miqdordagi, qimmat, samarasiz dorilar yozib berishidan bezib qolgan. Hatto ularning qabuliga kirishdan, kerakli-keraksiz tibbiy tahlillar topshirish, shifo berishi ehtimoldan uzoq bo‘lgan qimmat dorilarni sotib olishdan cho‘chishadi. Ularning nazarida haqiqatdan foyda beradigan dorilarni dorixona sotuvchisi yaxshiroq biladi.

Dori yozishga judayam berilib ketgan shifokorlar, asosan, bir xil tarkibga ega, bir xil vazifani bajaradigan dorining 3-4 turini, muayyan firmalarga tegishli eng qimmat narxdagisini tavsiya qilishadi. Shifokorning ko‘rsatma qog‘ozi(resept)dagi dorilarning har kimning ham cho‘ntagi ko‘tarmaydi. Qurbi yetgan taqdirda ularni ichib, foydasini sezmagach, hafsalasi pir bo‘ladi. Natijada kimdir maqtagan yoki bo‘rttirib reklama qilingan dorini palapartish qabul qiladi. Qarabsizki, muammolar zanjiri shu tariqa uzayib boraveradi...

Bir tanishim AQSHda o‘qib yurgan kezlarida shamollash tufayli shifokorga murojaat qilganida, u oddiy giyohli choy damlab bergani va ko‘proq suv ichishni tavsiya qilganini so‘zlab bergandi. Afsuski, bizda odamlar oddiy kasalliklarda ham, albatta, ko‘p dori qabul qilish kerakligiga qattiq ishonishadi. Ba’zida esa, oddiy shamollash yoki virusli kasallikdan tuzalish uchun ozgina vaqt, muddat kerakligini ham unutib qo‘yamiz.

Bugungi kunda shifokorlarning aksariyati firmalar bilan shartnoma tuzadi va ularning olib kiradigan dorilarinigina yozib beradi. Ba’zan ko‘rikka kirib, hatto o‘zlari tavsiya qilayotgan dorilarining nomini yoddan bilmasligidan, reklama qog‘ozlarini titib, ular orasidan duch kelganini yozayotganidan fig‘oning falakka chiqadi. Tibbiyot sohasi vakili bo‘lgan qarindoshimning aytishicha, firmalar shifokorga har bir yozilgan resept uchun dori narxidan ma’lum foizini to‘lar ekan.

Yurtimizda dori narxlarining qimmatligi, narxlar orasidagi tafovutlar ham alohida qiziq mavzu. Masalan, “Kleksan” dorisini olaylik. Toshkent shahridagi dorixonalarda bitta mamlakatda ishlab chiqarilgan, bir xil dozadagi preparatning narxi 440 ming so‘mdan boshlab 630 ming so‘mgacha belgilangan. To‘g‘ri, dori narxiga importyorlarning har xilligi, tashish xarajati, apteka tarmog‘ining kam yoki ko‘pligi kabi omillar ta’sir qilishi mumkin. Biroq bitta dori narxida 200 ming so‘m tafovut bo‘lishi mumkinmi? Yoki shunga o‘xshash sabablar dori narxini mutlaqo nazorat qilib bo‘lmasligini anglatadimi? Qolaversa, dorixonalarimizdagi narx-navo qo‘shni mamlakatlardagidan ancha yuqori. Ba’zi dorilar esa ulardagidan ikki baravargacha qimmat ekanligi aniqlangan. Yaroqlilik muddati kam qolgan dori vositalari esa arzonroq narxda sotiladi. Biroq, dorixona xodimlari bu haqda xaridorni ogohlantirishni o‘zlariga ep ko‘rishmaydi.



Husan SODIQOV
chizgan rasm.

Nega aybsiz norasidalarning o‘limi bizga saboq bo‘lmadi? Ular aynan zaharli dori preparatini qabul qilish natijasida halok bo‘lishdi. Ammo bu voqeadan bir yil o‘tib ham hech qanday sertifikatga ega bo‘lmagan, noqonuniy dorilarni sotadigan yirik dorixona tarmoqlari aniqlanyapti.

Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarini “Vitiligodan xalos qilamiz!”, “Buqoq, ostreoxondroz, revmatizmni butunlay yo‘qotamiz!” kabi reklama e’lonlari bosib ketdi. Ularning aldovlariga chuv tushgan, jabr chekkan, pullari sovurilgan jabrdiydalar juda ko‘p.

Qo‘lbola tayyorlangan dorilarning Andijon, Farg‘ona va Toshkent shaharlaridagi dorixonalarda sotuvga chiqarilgani esa xalqni yanada sarosimaga tushirgani sir emas. Namanganda bir feldsher yashirin sex sharoitida “Zodak”, “Anaferon”, “Xilak Forte” va “Vitamin B6” nomli qalbaki dorilar tayyorlab sotgani aniqlangan. Hamma ham soxta va haqiqiy dorining farqiga boravermaydi. Eng achinarlisi, bunday qabihlikka qo‘l urib, odamlar hayotini xavf ostiga qo‘yayotganlar na o‘z qilmishining oqibatidan, na qonun oldidagi javobgarlikdan qo‘rqishadi.

Xullas, gapiraversak gap ko‘p. Ayon haqiqat shuki, bugun farmatsevtika sohasidagi holat nihoyatda achinarli darajada. Soha mas’ullari quruq hisobot va safsatabozlikdan voz kechib, vaziyatni o‘nglash uchun jiddiy harakat qilishi kerak.

Muyassar IBROHIMOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

“BOTMASIN CHIQQAN QUYOSH...”

Boshlanishi 1-sahifada

Turkistonda hududlararo, qadimchi va jadidlararo ichki parokandalik ham bor edi. Shu bois ilg‘or ziyolilar Vatan taqdiri masalasida birbirlarini yakdil bo‘lishga da’vat qilishdi. Shunga ko‘ra juda ko‘p manbalarda birlashmoq, birdamlik g‘oyasi, milliy-mahalliy kuchlarni jamlash fikri yetakchilik qiladi.

Turkiston muxtoriyatiga oid adabiy tarixni shartli ravishda qisqa uch davr ko‘lamida kuzatish o‘rinli bo‘lsa kerak:

Turkiston muxtoriyati e’lonigacha bo‘lgan birinchi davrda yozilgan asarlarda ijodkorlar qalbida yashiringan erkka tashnalik ta’rif-tavsiflar bayoni keladi. Bularning ko‘pida yorug‘ istiqbol orzusi bor edi.

Bu tuyg‘u, ya’ni bir necha o‘n yillar davomida turkistonlik ziyolilar qalbida yashirin nish urgan hurriyatga tashna ichki bir ovoz sekin-asta “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” sifatida o‘z “sado”larini chiqara boshladi. Insoniylik, adolat, tenglik, erkinlikdan so‘z yuritishga jazm etildi. Chor hukumati ag‘darilib, o‘rniga Kerenskiyning Muvaqqat hukumati kelgan bir pallada yarim asr davomida zulmdan azob chekkan el o‘zining hurriyatli kunlari boshlanganiga juda katta umid bog‘ladi. Yurt ertasi, taraqqiysi yo‘lida qator anjumanlar, yig‘inlar, maslahat kengashlari, syezdlar, qurultoylar o‘tkazildi. Turli tashkilotlar, sho‘rolar, xayriya jamiyatlari tuzildi.

QUVONCH

1917-yil 27-noyabr kuni Qo‘qonda Turkiston muxtoriyati e’lon qilindi. Voqelikning bu ikkinchi davri bo‘lgan ayni sanada Muxtoriyat umri boshlandi. Yetmish ikki kunlik oraliqda matbuotda quvonchdan tug‘ilgan she’rlar, publitsistik maqolalar, tabriklar bosildi. Bu bir nafaslik shodiyona kunlar edi.

“Hurriyat” gazetasida Behbudiy “Turkiston muxtoriyati” nomli maxsus maqola yozib (1917-yil 19-22-dekabr), Muxtoriyat tarixini, bir necha marta “Sho‘roi Islom” tomonidan o‘tkazilgan syezdlar maqsadini tushuntirdi. Parokanda yurganlarni sulhga, ixtiloflarga barham berishga chaqirdi.

Muxtoriyat xavf ostida qolayotgan bir mahalda Behbudiy “Qozoq qarindoshlarimizg‘a ochiq xat”ini (“Hurriyat”. 1918-yil 26-yanvar) yozadi: “Bovurlar! Bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e’lon qilindi va siz bilingki, “Haq olinur, berilmas!” Ya’ni “Muxtoriyat”ni Turkiston bolalarining o‘zi birlashib g‘ayrat ila olurlar, albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo‘lidan kelsa, bermaslar. Biz bo‘shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo‘lig‘a sa’y qilmasak, albatta, hozirgi qog‘oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo‘q qilurlar, bul, albatta, shundaydur va bul so‘zg‘a hech kim ixtilof qilolmaydur”... “Munday fursat va zamonning bizg‘a qaytib kelishi ma’lum yo‘q, qadrini bilib ishlamoq kerakdur. Vaqt o‘tgandan so‘ngra o‘kinmoq foyda etmas...”

O‘kinchdan, afsus-nadomatdan, sochni yulib vovaylo qilgandan foyda bo‘lmaydi. Fursat muhim, vaqt g‘animat edi. Chunki Muxtoriyat, mustaqil bo‘lish, hurriyat har qanday hodisadan ulug‘roq ne’mat edi.

Abdurauf Fitrat “Muxtoriyat” nomli maxsus maqolasida Turkiston muxtoriyati e’lon qilingan kechani “milliy laylatulqadrimiz” deb nomladi.

Taniqli jadidshunos Sirojiddin Ahmad “Milliy hurriyat adabiyoti” kitobida Muxtoriyat munosabati bilan yozilgan ayrim yangi she’rlaridan namunalar berdi. Masalan, Abdulla Begi: “O‘z yerinda, o‘z elinda o‘z kuchin-erki borin, Endi turkistonlilar-da bildi, chinlab angladi”, deb yozdi. Tatar shoiri Said Sunachalay “Muxtoriyat sadosi” she’rida Muxtoriyatni otgan tongga, uyqudan uyg‘onishga o‘xshatib, musulmonlarni birlashuvga chorlaydi. Shavqiy Shahrixoniy esa: “Bo‘lsin baqoli davlat Muxtoriyat muborak!” deb ozod elni qutlaydi. Bu davlatning umri uzun – boqiy bo‘lish orzusini yozadi. Hidoyatulla Aliyev degan shoir: **“Botmasin chiqqan quyosh istamam hech boshqani”,** deb istak bildiradi.

G‘ulom Zafariy Muxtoriyat haqida “Quvvatimiz askardir” maqolasini yozadi. Har qanday yo‘l bilan bo‘lsin askarni qo‘llash, unga o‘zini, o‘zligini anglagan har bir odam moddiy yordam berishi lozim, degan fikrlarni aytadi. Afsuski, Muxtoriyat askar bilan, kuch bilan himoyalanib, hurriyat saqlab qolinmadi. Saodatli damlar qo‘ldan ketib, muxtoriyatchilar qatl etildi, qochib yashirinishga majbur bo‘ldi.

ARMON

Uchinchi davri Turkiston muxtoriyatining qonga botirilishidan keyingi afsus-nadomatlarga to‘la bo‘lgan davr bo‘lib, orzumandlar qalbida armonlar qoldi.

Behbudiyning xavotirga tushgani – oxir-oqibat kuchsizlik, parokandalik o‘zining manfur qiyofasini ko‘rsatdi. 1918-yil fevralida Muxtoriyat qo‘ldan ketdi. O‘zaro ayrilish, birlashmaslik, Behbudiy ta’biricha, buning oddiy nomi – ahmoqlik. Obrazli qilib aytganda, “o‘zlarining tomiriga o‘zlari bolta urmoqlik” edi. “Birlashg‘on Turkiston xalqining bo‘linishiga o‘zimiz sabab bo‘lmasak edi. Barcha ixtilofchilar va boshqalarda, albatta, zarar ko‘rarlar va ular ila barobar tatarlar-da, biz-da mundan zarar ko‘rurmiz va ixtilofimizning jazosini tortarmiz. U kunlarimizda yig‘larmiz, ammo foyda etmas”. Darhaqiqat, shunday – jazosini tortishdi, yig‘lashdi. Ammo foydasi bo‘lmadi. Ixtilof va tarqoqlik azob-uqubatini Turkiston millati bir necha o‘n yillar tortdi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy “Turkiston Muxtoriyatina” degan she’ridan tashqari davr ziddiyatlari, o‘zaro ixtiloflar, ulamo bilan taraqqiychilarning kelisha olmaganlari haqida kulgili yo‘sinda “Muxtoriyat yoki avtonomiya” nomli ikki pardalik drama yozadi. Mazmunan bu sahna asarida o‘zlarini zamona ulamosi o‘laroq ko‘rsatguvchi bir guruh kimsalar oddiy ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarni to‘g‘ri baholay olmasdan, o‘z nafslari yo‘lidagi o‘ylari, o‘zaro suhbatlari ko‘rsatiladi. Shunday muhim bir pallada, millat istiqboli hal bo‘ladigan mahalda bir qancha kimsalarga dunyoni suv bossa to‘piqlariga chiqmasligi Hamzaga alam qiladi. “Ulamo”lar suhbatidan ularning “haftanomiya” bilan “haftamabel”ni farqlay olmasliklari ma’lum bo‘ladi.

“X. Domla (*oyog‘ ustida turib*). U haftanomiyasi ham butun falokat axir, yangi kelgan vaqtda otlar hurkib, ipin uzub, arobalar olib qochib, necha odamlari bosib o‘ldirmaydimi?

Hamma hayron turar.

T.Domla (*kulibroq*). Yo‘q, u aroba-ku, taqsir! Uni haftamabel, deydi. Haftanomiyasi boshqa”

Davr va zamon yo‘rig‘idagi hodisalar guvohi Hoji Muin bezovta bo‘lib, “Namoyishlar to‘g‘risida”, “Bolsheviklar va biz” degan maqolalar yozdi. To‘g‘ri, hurriyat qo‘lga kiritildi, Muxtoriyat e’lon qilindi. Ammo u xavf ostida, dushman Muxtoriyat tinchligini buzishi, Muxtoriyat binosini barbod etishi, Muxtoriyat navniholini sindirib, parcha-parcha qilishi mumkin. Shu bois barcha ixtiloflarga barham berib, barcha kuchlarni birlashtirish, dushmanga qarshi hozirlik ko‘rish lozim. Hoji Muin: “Har holda bolsheviklar tek turmaslar. Biror bahona topib, bizning tinchligimizni buzarlar, deb gumon qilamiz. Chunki bularning chin muddaolari hanuz hosil bo‘lgan emasdir. Shuning uchun bizlarga kerakkim, bu to‘g‘rida har ehtimolga qarshi hozirlik ko‘raylik. Tamom birlik bilan kuch yig‘aylik. O‘z hurriyat va muxtoriyatimizni saqlamoq uchun mol va jonimizni fido etmakka hozir bo‘lib turaylik”, deya bong urdi.

MA’LUMOT: “Shahar uch kun yongan. 10 mingdan ortiq turkistonlik o‘ldirilgan. Siyosat uchun Farg‘ona vodiysidagi 180 qishloqqa o‘t qo‘yilgan. Yerli xalqdan Marg‘ilonda 7000, Andijonda 6000, Namanganda 2000, Bo‘zqo‘rg‘on va Qo‘qonqishloqda 45000 ga yaqin kishi o‘ldirilgan” (Begali Qosimov. Maslakdoshlar. Toshkent. “Sharq” nashriyoti . 1994-yil, 91-bet).

Afsuslar bo‘lsinkim, oradan bir oylar o‘tib, Hoji Muinni bezovta etgan o‘sha notinchlik, zo‘ravonlik, adolatsizlik sodir bo‘ldi. Erk qo‘ldan ketdi, Muxtoriyat qonga botirildi. Qo‘qonga doshnoqchilar tashlandi. Qishloqlar yondirildi, tinch aholi qirg‘in qilindi. Qo‘qon shahri to‘pga tutildi. Muxtoriyat mahv bo‘ldi. Muxtoriyatni qonga botirish – bu bolsheviklar siyosati, ularning mustamlakachilik siyosatidan, quyuq va’dalar bilan birga qo‘y terisini yopinib olgan bo‘rilarning ishidan boshqa narsa emas edi.

Turkiston muxtoriyatining qonga botirilgan o‘sha ayanchli kunlar fojialarini tavsiflab, toshkentlik Karimbek Kamiy “Voy, yuz voyki, Farg‘ona xarob o‘ldi, darig‘, zulm o‘qi birla bu kun gardi turob o‘ldi, darig‘...”, deya ulkan “Afsusnoma” bitdi. “Shahri obod edi Ho‘qand, xarob o‘ldi, darig‘”, deb yig‘ladi. Holbuki, she’r bitilgan pallalar Navro‘z kunlari edi. Yangi kun nafasi, bahor faslining havosi hech kimga tatimadi.

Qonli fojialar ta’siri ijodkorlar qalbini vayron qildi; yaralariga tuz sepdi. Ularning so‘zlarida afsus-nadomat paydo bo‘ldi. Cho‘lpon safarga chiqqan mahallarida “Vayronalar orasida” yurdi. Andijondan O‘shga qarab, muallif o‘z ta’biriga ko‘ra “yangi ruh va eski til bilan “tavakkal”ni aytib” yo‘lga chiqadi va vayron bo‘lgan o‘lka manzaralarini ko‘radi. Yo‘l bosib, “O‘sh bilan Andijonning qoq o‘rtasidag‘i Xo‘jaobod qishlog‘ig‘a” yetib boradi. Xaroba qishloq holini Cho‘lpon bunday tasvirlaydi: “Yo‘lda bir qishloqni ko‘rduk: yarmidan ko‘bi kuyib ketubdur. Sababini aravakashlardan so‘radim: “Bosmachilar bilan urushqoni chiqqan armanilar 3-4 yil bo‘ldi talab, o‘t qo‘yib yubordilar”, dedi...” Borib O‘shni ko‘radi. Garchand “iqlim va havosi” avvalgicha bo‘lsa ham, uning “bu kungi buzg‘un va xaroba holi bilan o‘n yil burungi O‘sh” emas edi. Shu bois Cho‘lpon “Yuqorida qo‘yg‘on sarlavham O‘sh shahrining chinakam tilmochi!” degan qat’iy fikrni yozadi. Cho‘lpon yo‘lda “bo‘shab qolg‘on hovli-joylarni va ularning yiqilib, ag‘darilib yotqon uy va devorlari”ga ko‘zi tushadi.

Shuning uchun ham:

“Ey, tog‘lari ko‘klarga salom bergan
zo‘r o‘lka,
Nega sening boshingda quyuq bulut ko‘lanka?” –

deb savol qo‘yadi shoir.

Bu fojia tinch aholini qon yig‘latdi. Qishloqlarning xarobalari bir necha yil kultepa sifatida o‘tgan-ketganning yuragiga vahima soldi. Jadid ziyolilari boshidan o‘tkazgan zolim kunlar, qalblariga o‘rnashgan o‘kinch va armon – bular tarixning yaralangan yurakdan qon tomgan sahifalaridir...

SABOQ

Muxtoriyat tufayli umidlar uyg‘ondi, kurashlar, harakatlar, intilishlar samara berdi, degan ma’noda quvonchli his-tuyg‘ular bayon etiladi, ko‘zlarda quvonch ko‘zyoshlari qalqiydi.

Ayni ijtimoiy-siyosiy hodisa matbuotda turli yo‘sinda yoritildi, qutlandi, uni saqlab qolish uchun askarlar zarurati aytildi, ehtiyot qilishga, hurlik qadrini bilishga, xushyorlikka chorlovlar bo‘ldi.

Hur zamon nima ekanini tasavvur qilish uchun o‘sha jadidlar orzusi bilan ming mashaqqatlar evaziga e’lon etilgan va, taassufki, qo‘lda ushlab qolishning imkoni bo‘lmagan, aqalli uch oy ham umr ko‘rishga ulgurmagan Turkiston muxtoriyatining holini bir tasavvur qilmoq kerak.

Muxtoriyat bamisoli baxt qushi edikim, kelib Turkiston tojiga qo‘ndi. Ammo bu baxt qushi boshimizdan uchdi, aniqrog‘i, uchirildi.

Tarix ibrat va saboq uchun oyina sanaladi. Muxtoriyat tarixi, shu Vatan uchun jon fido qilganlar xotirasi yodga olinmog‘i lozim. Bugun ularning jasoratlari, shijoatlari, hurriyatga tashna bo‘lganliklarini eslanishi lozim. Ruhi shod bo‘ladi.

Xullas, Turkiston muxtoriyati oyinasida jadid ziyolilarining qalbi ko‘rinadi, umidlari, shodliklari va keyin esa qalblari afsus-nadomat bilan to‘lgani kuzatiladi.

Turkiston muxtoriyati ziyolilarning birlik tug‘ini mustahkam tutmagani, boylarning Vatan taqdiriga beparvo qaragani va moddiy tomondan qo‘llab-quvvatlamaganlari oqibatida barham topdi. Tarix muhtasham ko‘zgudir.

Turkiston muxtoriyatining qismati hur va ozod insonlarni hamisha xushyorlik va ogohlikka chaqirib turadi. Muhim, qisqa muddatli umr ko‘rgan Turkiston muxtoriyati boshidan kechgan kunlar shuurli, millatparvar har kimga bugungi istiqlol ne’matining qadriga yetishdan saboq beradi. Shunday ekan, hozirgi sertahlika va notinch davrda jondan aziz istiqlolimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, Vatan kelajagi yo‘lida yakdil va hamjihat bo‘lish barchamizning muqaddas burchimizdir.

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonda)

Qoziyev Mahmudbek (Otabek Maxsum) 1888-yili Andijon shahrida yirik boy oilasida tug‘ilgan. Oliy va diniy ma’lumotli. Bosmachilik harakatida ishtirok etgani, uning rahbarlariga murojaatlar yozib, ularni Sovet hokimiyatiga qarshi olib borayotgan kurashiga ilhomlantiruvchi tabriklar yo‘llab turgani uchun o‘n yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Xidraliyevning yordami bilan muddatidan oldin ozod qilingan. 1932-yilda xorijiy pullar bilan chayqovchilik qilgan. “Sho‘roi Islom” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi, “Mahkamai Shariat”ning kotibi bo‘lgan. Qamoqqa olingan paytda xizmatchi bo‘lgan. Surgundan qaytib kelgach, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zolari bilan bog‘lanib, milliy, aksilinqilobiy guruhda faol ishtirok etgan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Karimov Isaq Qori – 1895-yili Andijon shahrida ruhoniy oilasida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi. Bosmachilik harakatida faol ishtirok etgan. 1930-yili qamoqqa olingan va bir yil qamoqda saqlangan. Qamoqqa olingan paytda teatrda xizmat qilgan. Teatrdagi xizmat vazifasidan foydalanib, o‘zining aksilinqilobiy millatchilik ruhidagi fikrlarini teatr sahnalarida, she’rlarida aks ettirgan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi bilan ayblanib, 8 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan.

Vahobov Madamin – 1904-yili Andijon shahrida savdogar oilasida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi, Mirza Tog‘ayning bosmachilar to‘dasida bo‘lgan. Hibsga olingan paytda kolxozda hisobchi bo‘lib ishlagan. Aksilinqilobiy, milliy tashkilot a’zolari bilan aloqada bo‘lgani, “xalq dushmanlari”ning faoliyatini maqtab Sovet hokimiyatining tadbirlaridan noroziligini bildirganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-bandi bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Nizomov Mahmudxon – 1890-yili Andijon shahrida ruhoniy oilasida tug‘ilgan. Sobiq savdogar, bosmachilik harakatining faol ishtirokchisi. Aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotining kotibi bo‘lgan. 1930-yili chet mamlakat pulini sotib oluvchi savdogar sifatida qamoqqa olingan. Hibsga olingan vaqtda o‘qituvchi bo‘lgan.

Aksilinqilobiy yig‘inlarda faol ishtirok etganlikda, VKP(b) va Sovet hukumatining tadbirlari to‘g‘risida uydirmalar tarqatganlikda, o‘quvchi-yoshlarni millatchilik ruhida tarbiyalaganlikda ayblanib, ya’ni O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Mo‘minov Hojiakbar – 1902-yili Andijon shahrida savdogar oilasida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi bo‘lgani va tashkilotga yoshlarni jalb etishga doir topshiriqlarni bajargani uchun VKP(b) safidan chiqarilgan.

Aksilinqilobiy guruh yig‘inlardagi ishtiroki, Sovet tuzumiga qarshi fikrlar aytganlikda, mish-mishlar tarqatganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Sultonov Fayzulla – 1905-yili O‘sh shahrida tug‘ilgan. Volost boshqaruvchisining o‘g‘li. Aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi. Shu tashkilotning mablag‘i hisobidan 1923-yili Turkiyaga o‘qishga yuborilgan, ammo bunga imkon berilmagan. Boku shahrida o‘qish uchun ham ruxsat berilmagan. Hibsga olingan paytda o‘qituvchi bo‘lgan. O‘zSSR Jinoyat qodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bo‘yicha 8 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Alimov Isroiljon – 1900-yili Andijon shahrida savdogar oilasida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Mirza Tog‘ay qo‘rboshi to‘dasining faol ishtirokchisi. Qamoqqa olingan vaqtda kolxozda hisobchi bo‘lib ishlagan.

Aksilinqilobiy, millatchi tashkilot a’zolari bilan aloqada bo‘lganlikda, aksilinqilobiy faoliyatni maqtagani, Sovet hukumati tadbirlaridan noroziligini bildirganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan 8 yil qamoqqa hukm etilgan.

Qayumov Asqar – 1896-yili Andijon shahrida savdogar oilasida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti topshirig‘iga ko‘ra Parpi qo‘rboshi boshchiligida bosmachilar bilan aloqa o‘rnatgan, aholi o‘rtasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borgan. Hibsga olingan vaqtda o‘qituvchi bo‘lgan.

Aksilinqilobiy guruh ishtirokchisi sifatida VKP(b) va Sovet hukumatining tadbirlariga, ayniqsa, quloqlarni sinf sifatida tugatish harakatlariga salbiy munosabatda bo‘lganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Rahimov Rasuljon – 1903-yili Qo‘qon shahrida savdogar oilasida tug‘ilgan, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi, Islom qo‘rboshi to‘dasida ishtirok etgan, VKP(b)dan o‘chirilgan. Hibsga olingan vaqtda teatrda ishlagan.


Aksilinqilobiy guruhdagi ishtiroki, Sovet hukumatining tadbirlariga qarshi chiqqanligi, Troskiy va boshqa xalq dushmanlari faoliyatini maqtagani, Tuxachevskiyning otilishiga hamdardlik bildirgani, mag‘lubiyatchilik mazmunida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganligi uchun O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan 8 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

GO‘ZAL YOZG‘ICHLAR

GO‘ZAL TURKISTON



Abdulhamid CHO‘LPON

Go‘zal Turkiston, senga ne bo‘ldi?
Sahar vaqtida gullaring so‘ldi.
Chamanlar barbod, qushlar ham faryod,
Hammasi mahzun. Bo‘lmasmi dil shod?

Bilmam ne uchun qushlar uchmas bog‘chalaringda?
Birligimizning tebranmas tog‘i,
Umidimizning so‘nmas chirog‘i.
Birlash, ey xalqim, kelgandir chog‘i,
Bezansin endi Turkiston bog‘i.
Qo‘zg‘al, xalqim, yetar shuncha jabr-u jafolar!
Ol bayrog‘ingni, qalbing uyg‘onsin,
Qullik, asorat – barchasi yonsin.

Qur yangi davlat, yovlar o‘rtansin.
O‘sib Turkiston, qaddin ko‘tarsin,
Yayrab, yashnab o‘z Vataning gul bog‘laringda!

YURT QAYG‘USI

MUXTORIYAT

Turkiston muxtoriyati... Temur hoqonining chin bolalari yoninda, turkistonli tubchak turklari orasinda, mundan ug‘urli, mundan muqaddas, mundan suyunchli bir so‘zni borlig‘iga ishonmayman.

Turkiston turkning qonini qaynatuvchi, imonini yuksaltguvchi bir quvvat bor esa yolg‘uz shu so‘zda bordur: Turkiston muxtoriyati!

Elli(k) yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo‘limiz bog‘landi; tilimiz kesildi, og‘zimiz qopondi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumuruldi, nomusimiz g‘asb qilindi, huquqimizg‘a tajovuzlar bo‘ldi, insonligimiz oyog‘lar ostig‘a olindi, to‘zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyrug‘ga bo‘yunsundik, butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik. Yolg‘iz bir fikrni bermadik, yashunturdik, imonlarimizga avrab saqladik: Turkiston muxtoriyati!

Mahkama eshiklaridan yig‘lab qaytganda, yoruqsiz turmalarda yotganda, yirtg‘uvchi jandarmaning tepgusi bilan yiqilg‘anda, yurtlarimiz yondurulg‘anda, dindoshlarimiz osilg‘anda ongimiz yo‘qoldi, miyamiz buzuldi, ko‘zimiz yog‘dusiz qoldi, biror narsani ko‘ralmadik. Shul chog‘da, tushgun ruhimizni ko‘tarmak uchun shul



qop-qorong‘u dunyoning uzoq bir yerinda oydin bir yulduz yalqillab tura edi. Biror narsaga o‘tmagan ko‘zimiz shuni ko‘ra edi. Ul nima edi? Turkiston muxtoriyati!

Biz aniq bila edikkim, zolim Nikolay hukumati qancha yasharsa yashasun, adolat oshiqi bo‘lg‘an... rus demokratiyasi, haqg‘a tayang‘an bir inqilob chiqarib, har millatning o‘z haqlarini qaytarur.

Inqilob bo‘ldi. Rusiyaning “qo‘shma xalq jumhuriyati” usuli bilan idora etiluri jarlandi (e’lon qilindi). Shul e’lon uzra yasalg‘an Ukraina, tatar va boshqa millatlar muxtoriyatlari tasdiq etildi. Ko‘nuq (navbat) Turkistonniki edi. Turkistonning tarixi xonbaliqlarindan (poytaxtlaridan) ikkinchisi bo‘lg‘an Xo‘qand shahrinda to‘plangan Turkiston qurultoyi 27-noyabrning (milliy laylatulqadrimiz bo‘lg‘an) yarim kechasinda Turkiston muxtoriyatini e’lon qildi.

Lekin shunisi borkim bir millatning muxtoriyati yolg‘uz bir syezdning e’loni bilan tamom bo‘lmas. Muxtoriyatni olmoq va saqlamoq kerakdur. Syezd o‘z ishini qildi. Qolganlari butun millatning vazifasidur. Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch lozim. Muxtoriyatni bajarmoq uchun aqcha kerakdur. Bunlarni millat hozir qilsun.

FITRAT

“Hurriyat”,1917-yil, 5-dekabr.

ZAMONDOSH

HUVAYDO MOMO GINNESNING REKORDLAR KITOBIGA NEGA KIRITILMAYAPTI?

Buvaydaga yo‘lingiz tushsa, Qoraqum qishlog‘iga ham bir kirib o‘ting. Bu yerda uch asr, ikki ming yillikni ko‘rgan, 1895-yili tug‘ilgan Huvaydo momo Umarova yashaydi. “Yo‘g‘-e” demang. Biz hujjat asosida gaplashamiz.

Salom-alikdan so‘ng, momo mendan avval savol berishni boshladi:

– Qayerdan keldingiz qizim, kimsiz?

– Momojon, jurnalistman. Uchko‘prikdan keldim.

– Haa, xotiram ham pasayib ketyapti. Biz katta Farg‘ona kanali qurilishida ishlaganimizda uchko‘prikliklar ham ko‘p edi. Hozir otlarini eslay olmayapman.



Momo shunday deb ko‘zlarini yumib oladi.

Sandalga tirsak qo‘yib o‘tirgan kenja o‘g‘il To‘raqul buva onasining “xotiram ham pasayib ketyapti”, degan gapiga kulib: “Xotiralari avvallari juda yaxshi edi”, deb qo‘ydi.

– Jadid o‘tgan, qatag‘on qilingan tog‘alari haqida aniq-tiniq hikoyalari bo‘lardi. Emishki, “Jadid” desa, odamlar tiraqay qochadigan zamonlar ham bo‘lganmish. Ha, odamlarning yuragini opqo‘ygan-da qizil iblislar... Yomonotliq qilgani ustasi farang edi la’natilar.

Momoning ziyoratiga turli qo‘shni davlatlardan ham mehmonlar kelib, duo olib ketishini gapirib berdi.

– Otam men birinchi sinfda o‘qiyotgan paytim vafot etgan. O‘sha paytda qo‘shnimiz meni quchoqlab, boshing omon bo‘lsin, endi sen ham yetim bo‘lib qolding, deganida yetimlik yomonligini his qilib yig‘lab yuborganman. Ammo onamiz yetimligimizni bildirmadi. Suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib bizni katta qildi. Kanal qurilishida...


Gap tugamasidan Huvaydo momo yana so‘z boshlab qoldi.

– Kanal qurilishida birorta ham texnika ishlatilmagan. Qishloqlardan odamlar – yosh-u qari, erkag-u ayol majburlab olib ketilgan. Hamma ketmon, kurakda yer ag‘darib, qumini qop va maxsus savatlarga solib yuqoriga tashiyvergan. Og‘ir ish edi. Norg‘ul-norg‘ul yigitlar (momo “boyavoy”-“boyavoy” deb ta’kidlab qo‘yadi) hammasi. 50-70 kilo qumni ko‘tarib tepaga tashirdi. Biz qum-u toshlarni ularning qopiga va savatiga solib berardik.

Undan keyin bir umr dalada ishladim. Bolalarimni “bir ko‘z” bilan katta qildim.

O‘sha davr odatlariga ko‘ra momo 16 yoshga yetib-yetmay turmushga uzatiladi. Birinchi turmushidan farzandsizlik tufayli ajrashadi va keyingisidan qator farzand ko‘radi. Onaning peshonasida farzand dog‘i ham bor ekan. Momo ikki farzandini chaqaloqligidayoq tuproqqa qo‘yadi. Yetti nafar farzandning to‘ng‘ichi esa 2013-yilda vafot etgan. Hozirda olti farzandi, 41 nabira, 64 chevara, 38 nafar evaralar ardog‘ida yashayotgan momoning xotiralarini eshitsangiz xuddiki, ertakka tushib qolgandek bo‘lasiz.

– Qiyin kunlarni ko‘p ko‘rdim, – deydi momo ozgina tin olarkan ko‘zlarini bir nuqtaga tikib. – Urush paytida erkaklarning hammasi frontga ketdi. Biz dalada tinmay ishladik. Kolxoz raisi menga bir yosh bolani yordamchi qilib bergandi. O‘sha bola bilan birga tongotar paxtaga suv qo‘yib



chiqardim. Hozir esimda yo‘q, gektar-gektar yerni kechasi bilan sug‘orib chiqardik-da. U paytlarda odamlar ham hozirgidek ko‘p emasdi. Dalada yovvoyi hayvonlar, chiyabo‘ri ko‘p bo‘lardi. Qo‘rqib-qo‘rqib tong ottirib olardik. Dalaning har yer-har yeriga olov yoqib qo‘yardik. O‘zimdan ham ko‘ra menga yordamchilikka berilgan bolani ehtiyot qilardim.

Huvaydo momoning kenja o‘g‘li esa onasining “bolam, qashamshaq bo‘lma, doimo yuragingda shukronalik hissi bo‘lsin, Yaratganga isyon qilma. Bugun sizlar hammadan ham yaxshi zamonda yashayapsizlar. Pul bo‘lsa hamma narsa topiladi. Nondan, ovqatdan, kiyim-kechakdan qiyinchilik yo‘q. Bizning bolaligimizda, yoshligimizda hatto pulga ham non topib bo‘lmasdi. Qiyinchilik bilan birga qahatchilik ham odamlarni holdan toydirar edi. Sizlar mana shunday yaxshi zamonda yashayapsizlar” – degan gapini takrorlab, “Rost, to‘g‘ri”, deb qo‘ydi.

Bu yil 129 bahorni qarshi oladigan Huvaydo momo doimo shifokorlar nazoratida. Uyda ham mehr, e’tibor og‘ushida.

Huvaydo momoning uzoq umr ko‘rishining sirini hamma bilgisi keladi.

Momoning avlodida bir asrdan oshganlar ko‘p bo‘lgan ekan.

“Bobomiz, Toshmat ota 101 yoshga kirgan. Tog‘alari Mullaqodir 130 yil yashagan. Saydiniso ammalari esa 125 yil umr ko‘rgan”, – deydi To‘raqul Umarov. – Andijon davlat tibbiyot instituti professori Ne’matjon Mamasoliyev tez-tez kelib turadi, u onamning genetikasini o‘rganish uchun turli apparatlardan ham foydalanadi. U kishining aytishicha, agar onamdagi uzoq umr ko‘rish siri aniqlansa, keyinchalik bu asosda insoniyatga foyda keltiruvchi kashfiyot yaratilar ekan.



Biz Ne’matjon Mamasoliyev bilan bog‘lanishga harakat qildik. Afsuski, u kishi ilmiy-amaliy anjumanda ekanligi sababli onaxon haqidagi fikrlarini bila olmadik.

Keyinroq balki professor Ne’matjon Mamasoliyevning o‘zi onaxon genetikasi bo‘yicha izlanishlarini e’lon qilib qolar.

Bundan uch yil avval mas’ullar momoning sayyoramizdagi eng yoshi ulug‘ inson sifatida Ginnesning rekordlar kitobiga kiritish uchun hujjat to‘plagan. Chet el mutasaddi tashkilotlari bilan bog‘lanishgan. Afsuski, sobiq sovet ittifoqi bergan hujjatlarga ishonch yo‘qligi vaji bilan haligacha bu ish oxiriga yetgani yo‘q.

“Qoraqum” MFY raisi Shodmonoy Aliqulovaning aytishicha, onaxonning hujjatlari yana qaytadan puxta tayyorlanib, Toshkentdagi mas’ullarga jo‘natilibdi.

– Tez kunlarda Huvaydo momoning Ginneslar kitobiga kirgani xushxabarini eshitsak ajabmas, – dedi Shodmonoy Aliqulova.

Sharifa MADRAHIMOVA,
jurnalist.

HUJJATLI QISSA

(Boshlanishi o‘tgan sonda).



Mirzo Qo‘qonboy ABDUXOLIQOV

JIZZAX QO‘ZG‘OLONI

O‘sha paytda Rusiyada mavjud bo‘lgan tabaqalarni uchga bo‘lib ko‘rsatish mumkin: 1) Zodagonlar yoki ruscha aytganda, dvoryanlar sinfi. Bu hukumat monopoliyasining sinfi bo‘lib, juda katta imtiyozlarga ega edi. Ruhoniylar shu sinfning bir tarmog‘ini tashkil etardi; 2) Shaharlarda yashaydigan meshchanlar, ya’ni muayyan miqdordagi mulk sohiblari, ular zodagonlarga nisbatan bundayroq imtiyozga ega edilar; 3) Mazkur tabaqaga krepostnoy dehqonlar kirardiki, ular har qanday huquqdan mahrum va biror-bir imtiyozga ega emasdilar.

Turkiston bosib olingach, yerli aholini ana shu tabaqalardan biriga kiritish lozim edi. Lekin qaysi tabaqaga? Masalaning nozik tomoni ana shu yerda.

Rusiya istilosiga qadar turkistonliklar ham qariyb shunday yoki shunga yaqin tabaqalarga bo‘lingan edi. Qrim, Tatariston, Kavkaz o‘lkalari bosib olingach, u yerdagi ijtimoiy tabaqalanish Rusiyadagi tabaqalanishga moslashtirilgan edi, ya’ni badavlatlar zodagonlar sinfiga, mayda mulk egalari meshchanlarga, dehqonlar esa krestyanlar sinfiga kiritilgandi. Rusiya hukumatdorlari nuqtai nazaricha, turkistonliklar madaniy dunyodan shunchalar orqada qolib ketgan edilarki, ularni, hatto, uchinchi tabaqa – krestyanlar sinfiga ham kiritib bo‘lmasdi. Nima qilmoq kerak? Keling, bu odamsifat hayvonlar uchun krestyanlardan ham pastroq bir “tabaqa” ixtiro qilaylik, degan xulosaga kelishadi.

Shunday qilib, turkistonliklarni alohida yangi tabaqaga – jamiyatning krepostnoylardan ham quyiroq bo‘lgan to‘rtinchi toifasiga kiritib, ularni “tuzemsi” – mahalliy, deb atay boshladilar. “Tuzemsi” garchi lug‘aviy jihatdan “mahalliy” ma’nosini bersa-da, lekin haqorat o‘rnida ham ishlatilardi.

Chor hukumatining o‘n olti bobdan iborat qonunlar majmui bo‘lib, shulardan grajdanlik va jinoyat qonunlari xiyla murakkab edi. Grajdanlik qismi mahalliylarga, jinoyat qismi esa jinoyatchilarga tatbiq etilardi. To‘g‘risini aytganda, turkistonliklar bu qonunlarga munosib ko‘rilmadi. Agar mavjud qonunlar yuzasidan Turkistonni idora qilganlarida asl maqsadlariga yetolmasdilar. Va shu bois Turkiston masalasida yangicha qonun ishlab chiqib, hayotga joriy qildilarki, uning nizomlari kundan kun qo‘l-oyoqlarni mahkamroq bog‘lashga xizmat qilardi. Ba’zi bir maishiy tadbirlar – nikoh va taloq, shuningdek, yengilroq jinoyatlar mahalliylarning shariati hukmiga havola qilingandi. Bunday ishlarni qozilardan iborat “narodniy sud” – xalq sudi shariat yuzasidan hal qilardi...

Mo‘g‘ullar davridan qolgan odat bo‘yicha ham qonun hukm surar va u shariat qonunidan ham oldinroq, balki Nuh to‘fonigacha tartib berilgan ortiqcha bir daxmaza edi. Shariat va odat yuzasidan qonun moddalarini taftish qiladigan mahkama yo‘qligi tufayli qozining aytgani aytgan, degani degan edi.

Ana shu uch qonun, ya’ni, birinchisi, Turkistonni idora qilish uchun chiqarilgan maxsus qonun, ikkinchisi, ming yillik shariat qonuni, uchinchisi, ko‘chmanchilarning odat qonuni Turkiston aholisining och-yalang‘och bo‘lish jarayonini tezlattirdi. Hukumat shariat va odat yuzasidan chiqariladigan hukmlarni himoya qilardi.

Chor hukumati bizga Rusiya qonunlarini joriy qilmadi deb xafa bo‘lishga, shikoyat qilishga hojat yo‘q. Zotan, turkistonliklar bunga umid ham bog‘laganlari yo‘q, chunki umumrusiya qonunlarini burjuaziya o‘ylab chiqargan bo‘lib, ular faqat burjuylar manfaatini himoya qilardi.

Biz uning durustroqligini amaliyotda ko‘rardik: Rusiya umumqonunlari ostida Turkistonda yashaydigan yevropalik shariat va odat qonunlari ostidagi mahalliylardan ko‘ra kamroq jabr tortardi.

Jabr-u zulm, noinsoflig-u nohaqlikning manbalari ana shu uchala qonun edi. Hukumat o‘zining maxsus qonuni bilan ko‘p millionli aholini tushovlab, bir necha ma’muriylarining qo‘liga topshirgan bo‘lsa, yana millionlab aholi shariat va odat yuzasidan boylar-u mulkdorlar quli bo‘lib qolgandi. O‘sha shariat-u odat qanchadan qancha xotin-qizlarni kanizak, xotin ustiga nechanchi bor kundosh bo‘lib tushishlariga yo‘l ochib bergandi.

Jabr-u zulm manbaiga aylangan o‘sha qonunlardan ayrim misollar keltirib o‘tamiz.



Rusiyadan ko‘chib kelgan krestyanlar mahalliy dehqonlardan yer sotib olishi mumkin edi, lekin dehqonlar ulardan yer sotib olish huquqiga ega emasdilar.

Agar birov uyezd hokimini ko‘rib otdan tushmasa yo piyoda o‘tayotganda ta’zim qilmasa, hokim yo pristuf qaror chiqarib, o‘sha shaxsni chor hukumatining qonunidagi 64-modda bo‘yicha bir haftadan o‘n besh kungacha hibsga olardi.

Misol uchun, bir bechora boydan qarz olib, tirikchiligini tiklab olmoqchi. Lekin qarzni o‘z vaqtida uzolmaydi. Boy darhol qozining oldiga borib, hech qanday hujjati bo‘lmasa ham bergan qarzini undirib berishni so‘rardi. Qozi qarzdorni olti oyga qamoqqa hukm qilish bilan qo‘rqitib, masalani boyning foydasiga hal qilib berardi. Qarz olgan u bechora zudlik bilan biror narsasini sotib yoki yana birovdan qarz ko‘tarib, boyagi mashmashadan qutulish payida bo‘lardi. Albatta, u bechora qaytarayotgan qarzning ustamasi-qo‘shimchasi ham bo‘lardiki, bu boy va qozining manfaatiga muvofiq kelardi.

Dunyoda hech kim pristufning qarori-yu qozining hukmiga daxl qilolmasdi. Yana bir misol. Magar birov qoziga borib: “Falon ayol yo qiz menga xotin bo‘lishga rozilik bergan edi, bilmadim, hozir negadir fikridan qaytib turibdi”, deb da’vo qilsa, qozi, albatta, o‘sha ayol yoki qizdan nomigagina u-buni so‘rab, masalani da’vogar foydasiga hal qilardi. Albatta, bu ishlarning hech biri “quruq”qa bo‘lmasdi, o‘rtada mashvarat uyushtirilardi, manfaat bo‘lardi. Ana shularning bari haqiqat. Nima bo‘lganda ham tayoq kambag‘alning boshida sinardi. Bu yerda yana bir nozik jihati bor. Agar birov musulmonlikdan voz kechib, xristianlikni qabul qilgan bo‘lsa, u maxsus qonun, shariat va odat hukmlari ostidan chiqib, Rusiyaning mahalliy qonunlari panohiga o‘tardi.

Yana Turkistonni idora qilish uchun chiqarilgan maxsus qonunga qaytamiz. Rusiya Turkiston istilosidan so‘ng taxminan 1880-yillardan boshlab fath qilingan joylarda posyolkalar bunyod qilib, Markaziy Rusiyadan muhojirlar ko‘chirib kela boshladi. Bu posyolkalar Xitoy chegaralari yaqinidagi Semirechinsk (Yettisuv) viloyatida barpo etildi.

Bu yerlardan xotirjam bo‘lgach, Farg‘ona, Andijon, Samarqand viloyatlarida ham posyolkalar qurish avj olib ketdi. Posyolkalar uchun soya-salqin, obod va sersuv joylar tanlanar va u yerlarning turg‘un aholisini zo‘rlik bilan boshqa joylarga ko‘chirtirardilar.

Bu ishlarini o‘sha maxsus Turkiston uchun chiqarilgan qonunga muvofiqlashtirish maqsadida 1890-yil har viloyatda yer uchastkalari bilan shug‘ullanadigan tashkilot tuzildi. Bu tashkilotning hay’ati 20-30 zemlemer (tanobchi)dan iborat bo‘lib, ulardan 5-6 tasi komissar hisoblanar va uning qo‘l ostida 5-6 tadan tanobchi bo‘lardi.

Mazkur hay’at suvni va lalmi yerlar, yaylov-u dashtlar, tog‘ yer maydonlarini o‘lchab chiqib xarita tuzdilar. Aholining mulkidan boshqa barcha yerlar, dasht va tog‘ yaylovlari ana shu xaritaga muvofiq podsholik mulkiga kiritildi. Keyingi yillarda Golodniy step, ya’ni Mirzacho‘lga Sirdaryodan suv chiqarilib, daryoning har ikkala qirg‘oqlarida ham posyolkalar tiklandi va muhojirlarning ko‘chib kelishi davom etaverdi.

Bu posyolkalarda faqat xristianlar yashardi. Mahalliy yoki Qrim-u Kavkazdan kelgan tatar musulmonlari bu posyolkalarda yashash huquqidan mahrum edilar. Shaharlarda ham shunday qonun joriy qilingan edi. Xristianlar qaysi millatga mansub bo‘lishlaridan qat’i nazar, shaharlardan hovli-joy sotib olishlari mumkin edi. Biroq Markaziy Rusiya, Kavkaz, Qrimdan kelgan musulmonlar bu imtiyozdan benasib edilar.

Masalan, Arxangelskdan kelgan xristian dehqoni Turkistondan yer olib dehqonchilik qilishi mumkin edi, lekin turkistonlik o‘z Vatanidan yer olib dehqonchilik qilishiga qonun yo‘l bermasdi!!! Illat shundaki, bu xristian, u musulmon!

(Davomi kelgusi sonda).

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Muyassar Ibragimova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 4583
Lotin yozuvidagi adadi – 11841
Buyurtma: G – 240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:50
Sotuvda narxi erkin.